sarflamay, juda qisqa vaqt ichida ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘li hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishning eng yaxshi yo‘li – mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil qilish hisoblanadi.

Interfaol ta’lim (inglizcha, “interact”, Ruscha, “interaktiv”, inter-o‘zaro, act-harakat qilmoq)- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni tashkil etishga asoslanuvchi ta’limdir.

Interfaollik o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga qaratilgan layoqatga egaliklarini anglatadi. Interfaol ta’lim o‘qitish jarayoning asosiy ishtirokchilari-o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida vujudga keladigan hamkorlik, baxs-munozaralar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, o‘z qarashlarni ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni hamkorlikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish , bir birlari bilan samimiy munosabatda bo‘lishlariga erishishlari bilan ifodalanadi.

Buning uchun dars jarayoni samarali tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishlari orttirilib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligi doimiy ravishda rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materiallarining mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi usullarni qo‘llash va o‘quvchilarni mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O‘quv jarayonining interfaol metodlarga asoslanishi bir qarashda juda oddiy, soda ko‘rinishda degan taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab etiladi:

- Ish tajribasi
- Metodik malaka
- Tayanch pedagogic-psixologik bilimlar
- Tashkilotchilik qobiliyat

- O‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikka erisha olishi
- Ta’lim jarayonida demokratik g‘oyalarning ustun turishi

Texnologiya darslarida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Venn diagrammasi- 2 yoki 3 ta muhim jihatlarni va umumiylarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun faoliyatni tashkil etish jarayonida qo‘llaniladi.

Venn diagrammasini tuzish uchun 2 ta kesishuvchi aylanaga chiziladi. Har bir aylanaga mavzuning alohida bir qismi haqidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi. Aylanalarning kesishuvchi joyida ikki yoki uch aylanalarning mavzulari solishtiriladi va umumiylar bo‘lgan ma'lumotlar ro‘yxati yoziladi.

Klaster – axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini mavzulashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ba’zi o‘quvchilar darsda zerikishadi va boshqa ishlar band bo‘lishadi. Interfaol metodlar yordamida o‘qitish qisman bu muammoning yechimi bo‘la oladi deb o‘ylayman. Texnologiya darslarida ushbu interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilar bilimini faollashtirishni tezlashtiradi. Fikrlash jarayonini erki va ochiq ravishda bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanish va kasb tanlash bo‘yicha dunyoqarashni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov.I. “Texnologiya ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2022
2. Karimov.I.I , Shomirzayev.M.X. “Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma . Toshkent “Universitet” 2020
3. Sharipov.Sh.S, Yakubova.X, To‘rabekov F, Qayumova. N. “Mehnat ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent -2008
4. ZiyoNet.uz
5. Ma’rifat.uz

**AMARANT(AMARANTUS) YETISHTIRISHDA SUG‘ORISH
MUDDATLARINING AHAMIYATI VA NIHOLLARNING UNIB
CHIQISH MUDDATLARI**

Xayitov Mamadiyar Allayorovich

q,x,f,n. dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti.
maxayitov1965@mail.ru

Alisherov Xasan Alisher o‘g‘li

magistranti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti,
alisherovhasan00@gmail.com

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Amarant(Amarantus)ning sug‘orish tadbirlarini meyorda qo‘llash natijasida suvning o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi paytda suv va energiya tejamkor ekinlarni ekish, ekologik toza, sifatli ekinlarni yetishtirish dolzARB masalalardan biridir.

Kalit so‘zlar: Suv, amarant, o‘sish, urug‘, harorat, ekish qoidalari, begona o‘t, biogumus, nihol, sug‘orish mudati.

KIRISH.

Hozirgi paytda yuqori hosilli, suvtejamkor, iqlim o‘zgarishlarining turli omillariga moslashuvcha, suv kam talab qiladigan, jahon bozorida xaridorgir, chorvachilikda to‘yimli oziqa beradigan, dorivor va yuqori biommasa beradigan universal o‘simliklarni ekib yetishtirish davir talabi hisoblanadi. Shu bilan birga sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish uchun ekinlarninig qisqa davir mobaynida yuqori xosil beradigan turlarini topish ham muhim masalalardan biridir. Bu borada. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1-martdagi PQ-144-sonli qarorida “Qishloq xo‘jaligidagi suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 1-2 ilovlarda keltirilgan bandlar asosida qimmatbaho o‘simliklarni yetishtirish maqsadga muvofiqliqdir. Ana

shunday o'simliklardan biri amarant hisoblanadi. Amarant (*Amarantus L.*) – bir yillik o'simlik hisoblanadi. Odatda O'zbekiston sharoitida manzarali gul sifatida qo'llanib kelingan va hozirgacha gultojixo'roz nomi bilan pastak bo'yli navlari mahalliy xalq tomonidan o'stirib kelinmoqda. XXI- asrning istiqbolli o'simliklaridan biri hisoblanadi. AQSH ning barcha shtatlarida, Xitoy, Hindiston va Avstraliyada amaliyotga keng joriy etilgan o'simlik hisoblanadi. Kanadada amarant oziq-ovqat sanoatiga joriy etilgan. AQSH va Rossiya Federatsiyasida ushbu o'simlikni o'rganish va ular asosidagi mahsulotlarni amaliyotga keng joriy etish bo'yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI, METODOLOGIYASI VA NATIJALARI

Amarant issiqsevar va yorug'sevlar o'simlik hisoblanadi. Amarant o'simligining o'suv davrining dastlabki bosqichida sekin rivojlanadi. Keyinchalik o'sishi va rivojlanishi yaxshi bo'lib boradi. Tuproq mumkin qadar mayin bo'lishi, egatlar sabzinikiga o'xshab sayoz va iydirib sug'orishga qulay bo'lishi kerak.

O'zbekiston M, Ulug'nor, Marhamat va Andijon navlari ishchi kuchi yordamida xar bir gektar maydon uchun o'rtacha 1-2 kg amarant urug'i ekiladi. Urug'larni tuproqqa ekishda namlangan g'alvirdan o'tkazilgan qum, chirigan go'ng, superfosfat va boshqa mahsulotlardan urug'ni to'ldiruvchi sifatida ular 1:10 yoki 1:5 nisbatda foydalanildi.[1]. Tajriba dalasida olingan egatlarning kengligi 30 sm olindi. Ekishdan oldin yer begona o'tlardan tozalanadi. Amarant maysalari yer yuziga chiqqanidan so'ng dastlabki 2-3 haftada begona o'tlarni yo'qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi. Urug' ekishdan oldin tuproq harorati 10-12 C° da ekishga tavsiya qilinadi. Dala tajribalari 2023-yilning aprel-may oylarida Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi tashkil etilgan maxsus tajriba yer uchastkasida, o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida olib borildi va har bir tajribalar bo'yicha tahlil natijalari o'rGANildi. Amarant ekiladigan maydon 21m² tashkil etadi. O'simlikni ekishda sharoit va muddatlarni to'g'ri belgilash urug'larning qiyg'os unib chiqishini ta'minlovchi omil bo'lib hisoblanadi. Shuni ko'zda tutish lozimki, urug' tushgan tuproqda uning unib chiqishi uchun issiqlikdan tashqari uning urug'i qattiq

parda bilan qoplanganligi bois, yetarli miqdorda namlik bo‘lishi kerak. Tajriba sug‘orish mudati asosida 2 ta varyantda qo‘yildi.



1-rasm Agrotexnik tadbirlari.

Amarant o‘simligini parvarish qilish murakkab jarayon bo‘lmasdan barcha ekib o‘stiriladigan o‘simliklarning agrotexnikasiga o‘xshash. Amarant o‘simligining urug‘larini ekishdan oldin biogumus bilan 1:10 nisbata aralashtirib 1.5 sm chuqurlikga ekildi. Ekishdan oldin tuproq mayin namlagan, qator oralari 30 sm qilib, urug‘lar orasi esa 10 sm dan ekish egatning ustida amalga oshirildi. Agar urug‘ suv ketadigan yo‘ldan ekilsa urug‘larni yuvulib ketishiga sabab bo‘ladi. Amarant urug‘lari uyalab ekishda 2-3 tadan ekildi. Urug‘larni ekib bo‘lgandan so‘ng sug‘orish ekilgan urug‘ xudi sabzinikiga o‘xshatib, zaxlatish talab qilinadi. Amarant urug‘i birinchi sug‘orishdan keyin orada har bir sug‘orish mudatining oralig‘i nazorat varyantda 3-4 kundi tashkil etdi, nazoratsiz varyantda 5-6 kundi tashkil etdi.



2-rasm. Nihollarning o‘sib chiqan xolati.

Qatqaloq yerni har ikki varyantda 4-5 kunda yumshatish ishlari amalga oshirildi. Amarant o'simligi ekilgandan so'ng nazorat varyati 8 kunda unib chiqdi. Nazoratsiz varyantda 13-14 kundan so'ng unib chiqdi. Sug'orish bilan birga amarantring o'suv va rivojlanuv fazalarida organik va mineral o'g'itlar ham berilib borildi. Ikkita varyantda ham umumiyligida sug'orish 10-12 martani tashkil qildi. Amarant o'g'itlarni qo'llash orqali sug'orishga juda sezgir ekanligi aniqlandi, bu yashil massa va urug'larning yuqori hosilini ta'minlaydi.[2]

XULOSA

Samarqand viloyati Jomboy tumani tuproq iqlim sharoitida amarant o'simligi o'sishi, rivojlanishi, agrotexnikasi, sug'orish meyorlari va mudatlari o'r ganilmoqda. Tajriba natijasida amarant o'simliklar o'sib rivojlanishida muntazam ravishda suv va oziq moddalar muhum o'rin tutadi. Kuzatuvlar natijasida suv tejamkorligi amarant o'simligida Nazoratsiz varyantda ham o'simlikning rivojlanishi, o'sishi meyorda bordi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Shahodatkhan Talatbek qizi Saidganieva ssaidganiyeva@mail.ru "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5
2. Ojiganov G.U., 1993; Kshnikatkina, A.N., 2003

INTERNET SAYTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-5884584>

O'ZBEK MULTIPLIKATSIYASINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Turdumuhamadova Iroda

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi magistratura mutaxassisligi
1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek multiplikatsiyasining bugungi kundagi ahamiyati xaqida, uning rivojlanishidagi kuzarilayotgan muammolar, multiplikatorlar oldida turgan vazifa va maqsadlarni ochib berishga harakat qildindi. Shuning uchun ushbu maqolada o'zbek multiplikatsiyasining bugungi kundagi ahamiyati xaqida ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilishiga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: multiplikatsiya, multiplikator, kinematografiya, animatsiya.

ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ МУЛЬТИПЛИКАЦИИ СЕГОДНЯШНИЙ ДЕН

Аннотация: В данной статье была сделана попытка рассказать о сегодняшнем значении узбекской мультипликации, выявить наблюдаемые проблемы ее развития, задачи и цели, стоящие перед мультипликаторами. Поэтому в данной статье была сделана попытка широко и всесторонне осветить значение узбекской мультипликации на сегодняшний день.

Ключевые слова: мультипликация, мультипликатор, кинематограф, анимация.

THE SIGNIFICANCE OF UZBEK ANIMATION TODAY

Annotation: In this article, an attempt was made to talk about the current importance of Uzbek animation, to identify the observed problems of its development, the tasks and goals facing the multipliers. Therefore, in this article an attempt has been made to broadly and comprehensively highlight the importance of Uzbek animation today.

Keywords: animation, animator, cinematography, animation.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda multiplikatsiya san'ati kundan kunga rivojlanib bormoqda. Ko'plab animatsiyalar yaratilmoqda, ko'plab yosh animatorlar yetishtirilmoqda. Ammo tan olishimiz kerakki, mazkur sohada rivojlangan mamlakatlardan biroz ortda qolganmiz, lekin uni istiqboli uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilayotgani ham sir emas. "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portalida O'zbekistonda multiplikatsiya sohasini rivojlantirish haqida pettsiya e'lon qilindi va unda bir vatandoshimiz tomonidan juda muhim bo'lgan quyidagi fikrlar bildirildi: "Multiplikatsiya sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlardan ortda qolganimiz hech kimga sir emas. Chet el multfilmlarini nafaqat bolajonlar, balki kattalar ham sevib tomosha qilishadi. Ulardagi jonzotlarning real hayotdagidek jonlantirib ko'rsatishganda esa multfilmni yaratishda ulkan mehnat sarflangani namoyon bo'ladi. O'zbek xalq ertaklari, afsonalaridagi qahramonlar va ulug' ajdodlarimizning qilgan ezgu ishlarini multfilmlar yordamida bolalarimizga namoyish etsak maqsadga muvofiq bo'lar edi" deb yozadi hamyurtimiz.¹

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, multiplikatsiya studiyalarini kengaytirish, sohadagi raqobatni oshirish, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi hamda texnikalarini qo'llash maqsadida davlat tomonidan xususiy multiplikatsiya studiyalarini rivojlantirish taklif qilingan.²

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham o'zbek kinematografiya va multiplikatsiyasiga katta e'tobor berilmoqda. Masalan, mazkur san'atni yuqori darajaga ko'tarish va sohani qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida farmon imzoladi. Prezidentimizning 2017 yil 7 avgustdagи «Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 3176- sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi «O'zbekkino» Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 1030-tonli qarorlariga asosan «Multiplikatsion filmlar studiyasi» DUK tashkil etilgan. Shuningdek, Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirishga qaratilgan ushbu qarorda O'zbek multiplikatsiyasida so'nggi yillarda milliy multqahramon yaratish talabi qo'yilib

¹ <https://kun.uz/uz/news/2020/06/26/>

² <https://kun.uz/uz/news/2020/06/26/>

¹ hamda multiplikatsion filmlarni 2018-yilda 15 ta, 2022-yildan boshlab esa har yili 50 tadan ishlab chiqarish belgilangandi.

"O'zbekkino" milliy agentligi endi kinematografiya agentligiga aylanadi, uning huzurida oliy ta'lif muassasasi-kinematografiya Akademiyasi paydo bo'ladi.

O'zbek rejissyorlarining kino asarlari haqida ma'lumotga egamiz, ammo multfilmlar haqida ega bo'lgan ma'lumotlarimiz hamda materiallarimiz yetarli emas. O'zbek multiplikatsiyasining shakllanish bosqichini tahlil etadigan bo'lsak ilk animatsion film "O'zbekfilm" studiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib ushbu badiiy filmlar kinostudiyasi 1925 yilda "Sharq yulduz" fabrikasi sifatida tashkil etilgan. 1936 yildan 1958 yilgacha Toshkent kinostudiyasi, 1958 yildan esa O'zbekfilm bo'lgan. Dastlab studiya tomonidan badiiy, qisqa metrajli, hujjatli filmlar va kinojurnallar ishlab chiqarilgan. 1965 yilda "O'zbekfilm" kinostudiyasida "kvadrat 6X6"deb nomlangan birinchi qo'g'irchoq animatsiya filmi namoyish etildi. Senariyning rejissyori va muallifi Damir Salimov va Yuriy Petrov bo'ldi.

Uzoq vaqt davomida respublikada faqat qo'g'irchoq multfilmlari suratga olingan, chunki o'sha paytda qo'g'irchoq teatrлari juda keng tarqalgan edi va rejissyorlarga qo'g'irchoq teatrlarini filmga moslashtirish osonroq edi. Biroq, 80-yillarda qo'g'irchoq animatsiyasi tanazzulga uchrashni boshladi va chizilgan animatsiya hech qachon shakllanmagan edi.

So'ngra rassomlar kompyuter grafikasi texnologiyasini takomillashtirishni kashf ettilar. Bugungi kunda stop-Motion animatsiyasi va ko'chirish qo'lda emas, balki grafik dasturlarda namoyish etiladi va o'rnatiladi. Dastlab zmonaviy texnologiyalarga moslashish rassomlar uchun oson bo'lмаган. Shu bois juda ko'p sonli past sifatli animatsion rasmlar ishlandi. Biroq rassomlar orasida muvaffaqiyatga erisha olgan multiplikatorlar ham yoq emas edi. Bular orasida Dmitriy Vlasov, Gayane Matevosyan, Мавзур Mahmudov, Aziz Muhamedov va boshqalar. Ushbu mualliflarning loyihalari ko'pincha xalqaro animatsion festivallarda mukofotlarga

¹ Azizbek Jabbarovich Jabbarov O'zbek multiplikatsiyasida milliy qahramonlarni va qadryatlarimizni tahqiqib etuvchi personajlarni yaratish, ularni bola tarbiyasidagi ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 2023 y.

sazovor bo‘lishdi. O‘zbekistonda multiplikatsiya san’ati kirib kelganiga ham yarim asrdan oshdi. Bu davrda 500 ga yaqin multfilmlar yaratildi. Ularning 10 da ortig‘i xalqaro festival va tanlovlarda ishtirok etib foliblikni qo‘lga kiritgan hamda e’tirof etilgan. Shu bilan bir qatorda multiplikatsion yo‘nalishida ko‘plab yosh rassomlar tarbiyalana boshlandi. Masalan, O‘zbekistonda ilk bor 2016 yilda Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida Multfilmning tasviriy yechimi ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi ochildi. Malakali animatsiya rassomlarining birinchi nashri faqat shu yil bo‘lib o‘tadi. Institutda animator va rejissyor Mavzur Mahmudov, Nigora Haydarovalar talabalarga saboq berib kelmoqda. Uning o‘zi bir bugungi kunda malakali mutaxassislardan biri xisoblanadi. Mavzur Mahmudov va u boshchiligidagi shogirdlari O‘zbekistonda multiplikatsiya san’atining ahvoli, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar va multfilm uchun milliy va qiziqarli qahramonlarini yaratish yo‘lidagi izlanishlarni amalga oshirmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda multiplikatsiya san’ati gullab-yashnashi uchun ustozlar bilan birgalikda biz yoshlar ham o‘z ustimizda tinmay ishlab, sohamizni yetuk mutaxassis sifatida shakllanishimiz kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Prezidentimizning 2017 yil 7 avgustdagи «Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 3176- sonli qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi «O‘zbekkino» Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 1030-sonli qarori
3. Akbarov H. Adabiyot va kino. -T.: Fan, 1981.
4. Akbarov H. Kino-telerejessura montaj. “Garmoniya”. Uch qismli television musiqali hujjatli film ssenariysi. – T.: Ilm ziyo, 2007.
5. Haydarova N. T. O‘zbekiston animatsion filmlari davriy katalogi. T.: TuronIqbol. 2019.
6. Azizbek Jabbarovich Jabbarov O‘zbek multiplikatsiyasida milliy qahramonlarni va qadryatlarimizni tahg‘ib etuvchi personajlarni yaratish, ularni bola tarbiyasidagi ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 2023 y.
7. “Multiplikatsion filmlar studiyasi” DUK hujjatlari.

Internet saytlari

8. <https://kun.uz/uz/news/2020/06/26/>

O'ZBEK MULTIPLIKATSIYASIDA JAXON ADABIYOTI TALQINI

Jumaboyeva Feruza

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi magistratura mutaxassisligi
1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek multiplikatsiyasida jaxon adabiyoti talqini, uning malakali mutaxassislari ijodiy ishlaridan namunalar tahlil qilindi. Mavzuni ochib berishga harakat qildindi. Shuning uchun ushbu maqolada o'zbek multiplikatsiyasida jahon adabiyotiga murojaat qilinishining mazkur sohada erishilishi mumkin bo'lgan natijalar xaqidagi ma'lumotlar keng va atroficha yoritilishiga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: multiplikatsiya, multiplikator, animatsiya, syujet, milliy mumtoz asarlari, jaxon adabiyoti durdonasi.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В УЗБЕКСКОЙ МУЛЬТИПЛИКАЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация мировой литературы в узбекской мультипликации, образцы творческой работы ее квалифицированных специалистов. Пытались раскрыть тему. Поэтому в данной статье была сделана попытка широко и всесторонне осветить информацию о возможных результатах обращения к мировой литературе в узбекской мультипликации в данной области.

Ключевые слова: мультипликация, мультипликатор, анимация, сюжет, национальная классика, шедевр мировой литературы.

INTERPRETATION OF WORLD LITERATURE IN UZBEK ANIMATION

Annotation: This article analyzes the interpretation of world literature in Uzbek animation, samples of the creative work of its qualified specialists. We tried to open the topic. Therefore, in this article, an attempt has been made to broadly and comprehensively highlight information about the possible results of turning to world literature in Uzbek animation in this area.

Keywords: animation, animator, animation, plot, national classics, masterpiece of world literature.

O‘zbek multiplikatsiyasi vujudga kelmishki, doim milliy asarlar yoki milliy obrazlar, milliy qahramonlar asosida ishlangan animatsiyalarni tomosha qilib kelamiz. Yurtimizda mutaxassislar tomonidan asosan milliyligimizga urg‘u beradigan multfilmlar yaratiladi. Masalan, rejissyor va rassom Mavzur Mahmudovning buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni asosida “Bahrom va Dilorom” (1996), “Farhod va Shirin” (2010), “Hayrat ul abror” dostoni asosida “Sher ila durroj” (2010) multfilmlari¹, qisqa metrajli kinofilmlari bilan tanilgan Shokir Xoliqovning o‘zbek multiplikatsiyasi tarixida ilk bor moybo‘yoq uslubida ishlangan “Qiz va bulut” animatsion filmi, 2019-yili “Multiplikatsion filmlar studiyasi” davlat unitar korxonasi (hozir yopilib ketgan) tomonidan 10 ta multfilm “Charxpalak”, “Mening go‘zal yashil rangim”, “Sehrli tanbur”, “Par yostiq”, “Qo‘zichoq, nay va qaroqchilar”, “Samarqand noni”, “Zag‘cha”, “Charxpalak-2”, “Qaldirg‘och bilan mayna”, “Kenja botir”, “Sayyoh” 3D kabi multfilmlar yaratildi.

Lekin o‘zbek multfilmlari deganda boy va kambag‘al, Zumrad va Qimmat sarguzashtlari, laqma va ayyor, yaxshi va yomon kishilar atrofida kechadigan voqealarni tasavvur qilamiz.

Bu qoliplardan chiqish maqsadida malakali mutaxassis rassom multiplikatorlar tomonidan jaxon adabiyoti hamda ertaklariga ham murojaat etilgan. Bunga rejissyor

¹ Nigora Xaydarova “O‘zbek animasiya san’ati” Jaxon adabiyoti jurnali 2019/6

Qamara Kamolova tomonidan rumin yozuvchisi Popesku hikoyasi asosida yaratigan “Quyosh yog‘dusi” va turkman xalq ertagi asosida “Kichkina demang bizni” kartinalari, rejissyor N.To‘laxo‘jaev va rassom S.Alibekovning amerikalik fantast yozuvchi Rey Bredberining hikoyasi asosida 1984 yil yaratilgan “Yoqimli yomg‘ir yog‘adi” asari, rassom va rejissiyor Mavzur Maxmudovning angliyalik yozuvchi Oskar Uayldning “Baxtli shahzoda” nomli hikoyasi asosida yaratgan multfilmi, uning rassom M.Qoraboev bilan 1999 yildagi G.X.Andersenning “Bulbul” ertagi asosida ishlangan asarlarini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Jumladan, D.Salimov va Y.Petrov hamkorligida yaratilgan “Sehrli sandiq” qo‘g‘irchoq filmidagi Zumrad va Qimmat, mahoratlari ijodkor M.Mahmudovning ilk perekladka filmi qahramoni “Xo‘ja Nasridin”, fantaziyaga boy iqtidorli ijodkor S.Alibekovning chizma usulda yaratgan “Uzviylik” kartinasiga bosh qahramoni va ijodkor D.Vlasovning zamonaviy texnologiyada yaratgan “Bor baraka” multfilmi qahramoni bo‘lgan keksa inson obrazi millatimizga xos xarakterda talqin etilgan. Bu asarlar dunyo miqiyosida tan olinib ko‘plab xorijiy tanlovlarda munosib taqdirlangan.

“Jahon adabiyoti namunalarini milliy mumtoz asarlarimiz kabi animasiya ekranda talqin etish o‘sib kelayotgan yosh avlodning tafakkur doirasini kengayishiga va dunyoqarashini yanada boyitishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda o‘zbek multiplikasiya san’atida milliy animasion filmlar yaratish tendensiyasi boshlanib, asosan, xalq ertaklari va bolalar adabiyotining milliy namunalarini ekranlashtirishga e’tibor qaratilmoqda.

Multfilmlar ishlab chiqaruvchi xorijiy yirik kinokompaniyalarning ijodiy tajribasiga e’tibor qaratsak, ularning asosiy muvaffaqiyat siri dunyo bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalariga tayanganligidadir. Jahon adabiyoti namunalari va dunyo xalqlari ertaklaridan unumli foydalanish milliy multiplikasiya sohasini har jihatdan rivojlantirishning muhim omili bo‘lib qolaveradi”.¹

¹ Nigora Xaydarova “O‘zbek animasiya san’ati” Jaxon adabiyoti jurnali 2019/6

Men ham ilmiy tadqiqot ishim uchun jaxon adabiyoti durdonasi bo‘lmish Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” asarini tanladim. Ushbu asar asosida animatsiya kartinasini, bunday jiddiy klassik asar qahramonlarining multiplikatsion obrazlarini yaratish uni soddalashtirilgan hollarda ham kattalar, ham bolalar uchun multfilm korinishiga keltirishni o‘z oldimga maqsad qilib oldim. Multfilm ishlash jarayonida turli xil qahramonlar obrazini yaratishda rassomdan kuchli mahorat talab qilinadi. Obraz yaratishda har bir rassom-multiplikator eng avvalo kuchli ijodiy qobiliyatga ega bo‘lishi lozim. Ijodiy yondashib yaratilgan multfilmlar o‘zining ulkan ta’sir kuchiga ega. Yaratilayotgan multfilmlar yosh tomoshabinlar uchun zerikarli bo‘lib qolmasligi kerak. Shu jihatdan multiplikatsiya uchun yaratiladigan multfilm ssenariysida syujet ritmga va qahramonlar dinamikaga boy bo‘lishi kerak. Shu bilan birga multiplikatsion asarda ko‘proq ijobiy qahramon orqali tomoshabinni ezgu g‘oyalarga yetaklashga va buzg‘unchi g‘oyalardan yiroqlashishga harakat qilinadi. Bu maqsadga erishish uchun ko‘plab o‘zbek va jahon adabiyotiga murojaat qilgan animator rassomlar ishlari tahlil qilinib o‘rganib chiqildi. Ilmiy tadqiqot ishimni bajarish jarayonida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lindi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston multiplikatsiya san’atida o‘z tomoshabinlariga erishish uchun nafaqat milliy adabiyotlar balki, jaxon adabiyotlariga ham murojaat qilishimiz kerakligi faqat va faqat ijobiy natijalarga erishishimizni kafolatlaydi deb xisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov H. Adabiyot va kino. -T.: Fan, 1981.
2. Akbarov H. Kino-telerejessura montaj. "Garmoniya". Uch qismli television musiqali hujjatli film ssenariysi. – T.: Ilm ziyo, 2007.
3. Haydarova N. T. O'zbekiston animatsion filmlari davriy katalogi. T.: Turoniqbol. 2019.
4. Haydarova N. T. "O'zbek animasiya san'ati" Jaxon adabiyoti jurnalı 2019/6
5. Azizbek Jabbarovich Jabbarov O'zbek multiplikatsiyasida milliy qahramonlarni va qadryatlarimizni tahg'ib etuvchi personajlarni yaratish, ularni bola tarbiyasidagi ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 2023 y.

THE IMPACT OF TRANSPARENCY LAWS ON CORPORATE ACCOUNTABILITY IN THE UNITED STATES

Jurakulova Bakhtiniso Todjiddin kizi

Master student of University of World Economy and Diplomacy

jbakhtiniso@gmail.com

Manabov Odilbek Abdugafarovich

Master student of University of World Economy and Diplomacy

manabovapplications@gmail.com

ABSTRACT

This article aims to illustrate the journey and impact of transparency laws on corporate accountability in the United States, highlighting their significance in shaping ethical business practices, along with the comparison to the previous laws. The author also suggests the possible benefits of knowing them for Uzbekistan.

Keywords: transparency laws, corporate accountability, legislation, capacity building, international collaboration, adaptation to local context.

INTRODUCTION

“The upcoming reformer and investor should know that Uzbekistan has a democratic system, that Uzbekistan is open and there is no bureaucracy. Most importantly, if there is no corruption, all our work will be as promised to the people ...”

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

In the realm of governance and ethical business practices, the United States stands as a beacon championing transparency laws aimed at fostering corporate accountability. These legislative measures, steeped in the pursuit of ethical conduct, have wielded a significant influence, reshaping the landscape of corporate responsibility and integrity.

The genesis of this crusade can be traced to landmark legislation, notably the Foreign Corrupt Practices Act (FCPA) of 1977. Its inception marked a paradigm shift, signifying the U.S. government's firm stance against bribery and corrupt practices by corporations operating overseas. The FCPA, enforced by the Securities and Exchange Commission (SEC) and the Department of Justice (DOJ), set the stage for transparency as a cornerstone of corporate accountability.

Uzbekistan can draw insights from the U.S. experience to formulate or refine its own anti-corruption legislation. Understanding the structure and effectiveness of transparency laws can aid Uzbekistan in crafting similar measures tailored to its socio-economic and political context.

LITERATURE ANALYSIS AND DISCUSSION.

Studying the success and challenges faced by the U.S. in implementing transparency laws provides a wealth of best practices. Uzbekistan can adopt and adapt these practices, considering their applicability within its legal and regulatory framework. Knowledge about the impact of transparency laws can assist in capacity building efforts. Training programs, workshops, or educational initiatives can be designed to educate stakeholders, including government officials, policymakers, and corporate entities in Uzbekistan, on the importance and implementation of transparency measures.

Building upon the foundation laid by the FCPA, subsequent legislative acts such as the Sarbanes-Oxley Act of 2002 and the Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act of 2010 further fortified the regulatory framework. These acts introduced stringent reporting requirements, whistleblower protections, and mechanisms aimed at fostering transparency within corporate entities, particularly in the financial sector.¹ The impact of these laws on corporate behavior has been profound. Corporations, under the scrutiny of heightened transparency laws, have undergone a seismic shift in their operational ethos. Disclosures of financial information, adherence to compliance protocols, and the establishment of robust

¹ Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act, and other regulatory documents.

internal controls have become the norm rather than the exception. Noteworthy cases, such as the enforcement actions against companies for violating the FCPA or instances where whistleblowers exposed corporate malpractice under the protective umbrella of Sarbanes-Oxley, underscore the tangible impact of these laws. The penalties levied and the reforms instituted following these cases serve as poignant reminders of the transformative power of transparency laws in upholding corporate accountability. However, challenges persist.¹ The global nature of business operations poses hurdles in ensuring uniform adherence to these laws across borders. The continuous evolution of technology also presents both opportunities and challenges in maintaining transparency and combating new forms of corporate malfeasance.

Five significant events have played a dominant role in establishing the modern form and practice of corporate governance in the United States. These five factors have had a profound impact on corporate governance practices over the past two hundred years. Academic research on corporate governance has been significantly influenced by the academic research on corporate governance to form a complete picture showing the role of only one of these factors.²

The evolution of the concept of corporate governance in the United States, viewed, as it should be, in a historical context, can be linked to five defining events.

The first was the decision of the North American colonies to retain the British common law system at the time of their independence from Great Britain. As a result, they acquired a body of corporate law on which all subsequent U.S. corporate law was based. Perhaps the most important single piece of this legislation was created by Lord Hartwick's decision in *The Charitable Corporation vs. Sir Robert Hutton* that directors are legally responsible to shareholders for proper supervision of the corporation's activities and can be charged with compensation in favor of shareholders in case the latter lose money due to directors' negligence.

¹ Amoako-Adu B, Smith B.F. 1995. Outside financial directors and corporate governance. In: Daniels R. J., Mork R. (eds.). *Corporate Decision Making in Canada*. University of Calgary Press: Calgary; 401- 420.

² Bhagat S., Black B. 2002. The non-correlation between board independence and longterm board performance. *Journal of Corporation Law* 27 (2): 231-273.

The second major development was the famous decision of Chief Justice Marshall of the United States Supreme Court in 1819 in the Dartmouth College case, where he defined a corporation as follows:

A corporation is a collection of individuals united in one collective organization, which has a special name and possesses certain. A corporation is a collection of individuals united in one collective organization, bearing a special name and possessing certain capabilities. Due to its collective character that are not possessed by the individual natural persons who formed it. It also has the capacity for perpetual renewal and action based on the collective vote or wishes of its members. In short, it is a man-made entity that exists by virtue of the rules of law and is endowed with certain powers. and so clearly observable as if it were a real character.

The third event was the publication in 1932 of a book by A. Berle and G. Minz "The Modern Corporation and Private Property" which opened up a whole new perspective on corporate governance and had a major impact on both the relevant legal norms and academic research in this field.¹

The fourth event is not reduced to a single action. It is related to the emergence of a new category of actors on the scene: the growing importance of institutional shareholders. In the final part of the XX century they played a key role in creating the possibility and widespread hostile takeovers of the 1990s.²

The fifth event is happening nowadays - the effectiveness of corporate governance is melting right before our eyes, as illustrated by the collapse of the companies and the corresponding intellectual crisis of the whole field of theoretical and practical research on corporate governance.³

The journey toward corporate accountability through transparency laws in the United States is an ongoing saga. While these laws have undoubtedly reshaped corporate practices, the path to unwavering accountability is a dynamic and evolving one. The commitment to transparency, coupled with robust enforcement and

¹ Berle A., Means G. 1932. The Modern Corporation and Private Property. MacMillan: N.Y

² Bruck C. 1988. The Predators Ball. Simon and Schuster: N. Y.

³ Burrough B., Helyar J. 1990. Barbarians at the Gate: The Fall of RJR Nabisco. Harper and Row: N. Y.

adaptability to emerging challenges, remains paramount in fortifying the ethical fabric of corporate America.¹ In essence, the impact of transparency laws on corporate accountability in the United States is a testament to the nation's resolve in fostering ethical conduct and integrity within the corporate sphere.

CONCLUSION

Understanding how transparency laws operate in an international context, especially considering the global nature of corruption, can facilitate international collaborations and partnerships. Uzbekistan can engage with international organizations and other countries to exchange experiences, foster cooperation, and garner support for its own anti-corruption endeavors. While drawing from the U.S. experience, Uzbekistan should also tailor anti-corruption strategies to suit its unique cultural, social, and political landscape. Understanding the principles behind transparency laws allows for adaptation without losing sight of core ethical values.

Overall, leveraging the insights from the U.S. experience can serve as a guiding light for Uzbekistan's journey toward enhancing transparency, fostering corporate accountability, and combating corruption within its own socio-political setting.

REFERENCES

1. Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act, and other regulatory documents.
2. Amoako-Adu B, Smith B.F. 1995. Outside financial directors and corporate governance. In: Daniels R. J., Mork R. (eds.). *Corporate Decision Making in Canada*. University of Calgary Press: Calgary; 401- 420.
3. Bhagat S., Black B. 2002. The non-correlation between board independence and longterm board performance. *Journal of Corporation Law* 27 (2): 231-273.

¹ Cadbury, Sir Adrian. [1933] 1993. Highlights of the proposals of the Committee on financial aspects of corporate governance. In: Prentice D. D., Holland P. R. J. (eds.).

4. Berle A., Means G. 1932. *The Modern Corporation and Private Property*. MacMillan: N.Y.
5. Bruck C. 1988. *The Predators Ball*. Simon and Schuster: N. Y.
6. Burrough B., Helyar J. 1990. *Barbarians at the Gate: The Fall of RJR Nabisco*. Harper and Row: N. Y.
7. Cadbury, Sir Adrian. [1933] 1993. Highlights of the proposals of the Committee on financial aspects of corporate governance. In: Prentice D. D., Holland P. R. J. (eds.).
8. Contemporary Issues in Corporate Governance. Clarendon Press: Oxford.

BANK OPERATSIYALARINING MOHIYATI

Ilmiy rahbar: **Juliboy o‘g‘li Oybek**

SamISI, “Bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Saidqulov A.

SamISI, Bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Bank operatsiyalari – banklar amalga oshiradigan operatsiyalar: joriy yoki boshqa hisob varaqqa pul qabul qilish, foizi bilan yoki foizsiz kreditlar berish, birja topshiriqlarini bajarish, qimmatbaho qog‘ozlar, aksiyalar sotib olish, mijozlarning topshiriqlarini bajarish, tovarlar yoki tovar hujjatlari garovi hisobiga ssudalar berish, shuningdek boshqa har qanday pulli va naqd pulsiz hisobkitoblar bo‘yicha operatsiyalar kiradi. Asosan passiv (kreditlash uchun resurslar hosil qilish) va aktiv (foyda olish maqsadlarida bu resurslarni ishlatish) turlarga bo‘linadi.

Kalit so‘zlar: *Bank, operatsiyalar, aktiv, passiv, resurs, banklar faoliyati, markaziy bank.*

АННОТАЦИЯ

Банковские операции-операции, осуществляемые банками: прием денег на расчетный или иной счет, выдача кредитов с процентами или без, выполнение биржевых поручений, покупка ценных бумаг, акций, выполнение поручений клиентов, выдача кредитов под залог товаров или товарных документов, а также операции по любым другим денежным и безналичным счетам. В основном подразделяется на пассивный (создание ресурсов для кредитования) и активный (использование этих ресурсов с целью получения прибыли).

Ключевые слова: *Банк, операции, актив, обязательство, ресурс, банковская деятельность, центральный банк.*

ANNOTATION

Banking operations are operations carried out by banks: accepting money to a settlement or other account, issuing loans with or without interest, executing exchange orders, buying securities, shares, executing customer orders, issuing loans secured by goods or commodity documents, as well as transactions on any other monetary and non-cash accounts. It is mainly divided into passive (creation of resources for lending) and active (use of these resources for profit).

Key words: Bank, operations, asset, liability, resource, banking activity, central bank.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qabul qilgan „Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, banklar amalga oshiradigan operatsiyalar ro‘yxati bir qator yangi bank operatsiyalari bilan to‘ldirildi.

Xususan, qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish, elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash kabi operatsiyalar shular jumlasidandir.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
- to‘lovlarini amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
- kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb etilgan mablag‘lar hisobidan berish;
- chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
- jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;
- inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;

- uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
- uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
- affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas’ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;
- qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
- hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;
- lizing berish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
- moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq maslahat xizmatlari ko‘rsatish;
- aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;
- elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash;
- bank kartalarini berish va to‘lov larga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish.
- Banklar banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.
- Banklar bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko‘rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganida, passivlar aktivlardan ko‘payib ketganida;

litsenziya berishga asos bo‘lgan ma’lumotlarning noto‘g‘riliqi aniqlanganda; bank o‘z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘Imaganida;

hisobot ma’lumotlari muntazam ravishda buzib ko‘rsatilganda;

qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;

litsenziya berilgan paytdan e’tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;

monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda.

Banklar o‘z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg‘armalariga doir ma’lumotlar sir saqlanishiga kafolat beradi. Bankning barcha xizmatchilari bank, uning mijozlari va vakillarining bank operatsiyalari, hisobvaraqlari va jamg‘armalariga doir ma’lumotlarni sir saqlashlari shart.

Yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma’lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o‘ziga, prokuror, sudlarga, jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma’lumotnomalar mijozlarning o‘ziga va ularning qonuniy vakillariga; mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag‘lari hamda boshqa qimmatbaho narsalar xatlanishi, ularga undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo‘lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo‘yicha sudlar, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Hisobvaraqlar va omonatning egalari vafot etganda ushbu hisobvaraqlar hamda omonatga doir ma’lumotnomalar mazkur hisobvaraq yoki omonat egasi bankka topshirgan vasiyatnomasida ko‘rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning jamg‘armalariga doir meros ishlarini yuritayotgan davlat notarial idoralariga, chet el fuqarolarining hisobvaraqlariga doir ma’lumotnomalar esa — chet el konsullik muassasalariga beriladi.

Markaziy bankning tijorat banklaridan depozitlarga asosiy stavka darajasida mablag‘larni jalb qilish operatsiyalari. Ushbu auksionlar 2022 yilning mart oyidan

boshlab “to‘liq qoplanadigan o‘zgarmas foiz stavkali” operatsiyalar (fixed rate – full allotment) ko‘rinishida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq kelgan va xalqaro amaliyotda foydalaniladigan chet el valyutasidagi har qanday operatsiyalarni respublikada va chet ellarda amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, valyuta va o‘zga manfaatlarini ta’minlashga ko‘maklashgan holda hukumatlararo savdo, to‘lov bitimlarining (shartnomalarning, mo‘ljal bayonlarining) valyuta-moliya shartlarini ishlab chiqishda qatnashish;

hukumatlararo bitimlarga, (shartnomalarga, mo‘ljal bayonlariga) muvofiq ravishda “rubl” zonasiga kiruvchi davlatlar va boshqa davlatlarning Markaziy hamda milliy banklari bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida shartnomalar tuzish;

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

bankni ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar topshirilmaganligi;

ta’sis hujjatlarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;

bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi;

muassislar moliyaviy mablag‘larining manbalari e’lon qilinmaganligi;

bankni ro‘yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to‘lanmaganligi;

bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

Xulosa. Bank operatsiyalari- Banklarning o‘z maqsadlariga erishish va harakat qilishi vositalari. Ular aktiv va passiv operatsiyalarga bo‘linadi, shuningdek, banklar har xil turdagи xizmadarni ham ko‘rsatadi (faktoring, lizing, konsalting, trast va h. K).

Bankning passivlari- Yuridik va jismoniy shaxslarning bosh pul mablag‘lari, o‘z mablag‘lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan, bank xarajatlari bilan bog‘liq operatsiyalar majmuyi.

Bankning aktivlari-banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular, asosan, bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi..

Aktiv operatsiyalar real hayotimizdagi bank kreditlari olishdagi katta ahamiyati bor. Kreditlar esa bizni turli bizneslarni boshlashdagi asos bo'lib xizmat qiladi.

Bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchiga rad etish sabablari hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, takroran ko'rib chiqish uchun ariza berishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi. Bunda bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi arizani takroran ko'rib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n besh kundan ko'p bo'lмаган muddatda amalgalashadi. Bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan ariza yangidan berilgan hisoblanadi.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi arizani takroran ko'rib chiqishda bankni ro'yxatga olishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha ro'yxatga olishni va litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019–yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi;
2. 2022-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2344- sonli Qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi;
5. Karimova A. M. SOURCES OF FINANCIAL AND CREDIT SUPPORT AND FACTORS HINDERING THE DEVELOPMENT OF TOURISM ENTERPRISES //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.
6. Zuhur N. et al. TRANSITION OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN TO A CREDIT-MODULAR SYSTEM //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 123-127.
7. Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.
8. Жулибай угли, О., & Убайдуллайева, Л. А. кизи . (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКИНГНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. SCHOLAR, 1(29), 66–73.

INVESTITSIYA FAOLIYATINI KREDITLASH

Ilmiy rahbar: **Juliboy o‘g‘li Oybek**

SamISI, “Bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abdukarimov Q.

SamISI, Bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi

Annotatsiya: Loyihalarni tahlil qilishning asosiy masalalaridan biri bu inson omili hisoblanadi. Bu loyihalar insonlarning turmush darajasini oshirish va ularning hayotini yengillashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Investetsiya loyihalarida, tadbirkorlarning biznes rejalarida birinchi navbatda foyda olish maqsadi yotadi. Investetsiya loyihalari tahlilining davlat organlari tomonidan qarab chiqilganda, ular davlat va aholining manfaatlaridan kelib chiqib bu loyihalarga baho beradilar. Loyihalarning amalga oshirilishining samaraliligida ijtimoiy tahlilning ahamiyati katta o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Investetsiya, kreditlash, loyiha, tahlil, tijorat banklari.

1. Dirk DePoli, *The Pragmatic Dimensions of Americanisms and Anglicisms in German: A Sociolinguistic Perspective* (2018)
2. Manuela Janich, *Lexical Borrowing and Language Contact: The Germanic Languages in Contact with English and American English* (2020)
3. Jürgen Erfurt, *Understanding English Borrowings: A Pragmatic Perspective* (2009)
4. Nicole Rolf, *Analyzing Anglicisms and Americanisms in German Media Discourse: A Pragmalinguistic Approach* (2015)
5. Sigrid Brandt, *Anglicisms and the German Language: A Study of Pragmatics and Sociolinguistics* (2012)
6. Jens Schröter, *The Role of Anglicisms and Americanisms in Globalized German: A Pragmatic Analysis* (2010)

OROL HAVZASI GEOEKOLOGIK MUAMMOLARINING O'ZBEKISTON RANGTASVIRIDA AKS ETISHI

Rayimov Furqat

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Rangtasvir (dastgohli rangtasvir) magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada orol havzasi geoekologik muammolarining o'zbekiston rangtasvirida aks etgan asarlarning ahamiyati xaqida, ijodkor oldida turgan vazifa va uni qay tarzda bajarishni yo'l yo'riqlarini ko'rsatib berishga harakat qildindi. Mazkur mavzuda ijod qilgan O'zbekiston rassomlari ijodi va ularning uslublari o'r ganib chiqilgan. Mazkur mavzuni to'liq yoritishga qaratilgan bu maqola bo'lajak rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, Orol fojiasi, eksperimentator.

THE IMPORTANCE OF COMPOSITION IN THE WORKING OF A PAINTING WORK

Annotation: This article describes the importance of the geo-ecological problems of the Aral Basin in the painting of Uzbekistan, the task facing the Creator, and how to accomplish it. The work of Uzbek artists who worked on this topic and their styles are studied. This article, designed to fully cover this topic, focuses on the information that future artists should learn.

Key words: The Aral Sea, the Island tragedy, the experimenter.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Orol dengizi haqida o'r ganadigan bo'lsak, u o'z o'tmishida uch marta qurigan, deyishadi. Avvalgi ikki marotaba dengizning qurishiga tashqi bosqinchilik oqibatida Amudaryo oqimi Uzboy o'zani orqali Kaspiy dengiziga burilishi sabab bo'lsa, bizning davrimizdag'i ekologik inqiroz xalqimizni paxta bilan bo'g'izlagan mustamlakachilik siyosatining qat'iy rejalashtirilgan maqsadi edi. Mo'ynoqning bahori bilan kuzi – asal oyidagi kelinchakka o'xshaydi.

Ertalab musaffo uyg‘ongan quyosh peshindan keyin shimoldan esgan tuz qum aralash shamol bilan xiralashib, ba’zi vaqtlari ko‘zni ochtirmaydi, lekin kechqurun quyosh yana tiniq, musaffo holiga qaytadi. Shu kunga qadar Orol to‘g‘risida yozilgan bitiklar, nutqlar va va’dalardan suv chiqarish mumkin bo‘lganida edi, dengizni allaqachonlar to‘ldirgan bo‘lardik. Lekin suv jonivor Orolga faqat ikki daryodangina keladi...

Olimlar bilan yozuvchi-shoirlar, rassomlarga rahmat, o‘zlarining takliflariyu, bitiklari, tasvirlari bilan ko‘nglimizga taskin berayapti. Hatto, bir shoir og‘amiz, «dengizni ko‘zining yoshlari bilan to‘ldirishini» yozgan edi.

Yurtboshimizning taklifi bilan bu yil bahor kunlari BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning Orolga tashrifi va birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyası sammitining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqida ta’kidlaganidek: «Orol fojiasi ekologiya muammolariga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishning yaqqol misolidir. Bir paytlar noyob va go‘zal dengizlardan biri bo‘lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo‘qolib borayotgan suv havzasiga aylandi».

Biz qanchalik harakat qilmaylik tabiatga kuchimiz yetmaydi. Ammo biz rassomlar Orol dengizining hatto shu holatida ham go‘zal qiyofasini ko‘ra olamiz va o‘z asarlarimizda tasvirlaymiz. Ko‘plab ustoz rassomlarning sevimli mavzulariga allaqachon aylanib bo‘lgan. Hech bir rassom yo‘qki hayoti davomida bir marta bo‘lmasin orolni ko‘rmagan matoga ranglar orqali tushirmagan bo‘lsa.

Orol hayoti davri sovet rassomlari tomonidan tasvirlanib kelgan. Ular bizning vaqtimizga etib kelidi va Orol dengizi bilan sodir bo‘lgan dahshatlil falokatning hujjatli dalilidir. Afsuski, bugungi yoshlar Orol dengizining taqdiri haqida deyarli to‘liq tasavvurga ega emaslar. Buning uchun ular faqat yozma manbalarga, foto arxivga va rassomlarning realistik asarlariga ishonishlari mumkin.

Aynan shu asarlar 1959 yilda Orolning to‘liq suvli davri bilan Muynoqning asosiy portida rassom N. Sultonov tomonidan mohirona ijo etilgan. U suv dunyosini, ya’ni dengiz, daryolar va ko‘llar to‘lqinlarini alohida mehr bilan yozgan. "Orol seriyasi" - bu P. P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurtida o‘qigan davrida Muynakdagi talabalik yozgi amaliyotining natijalari.

1960 yildan boshlab Orol suvlari yiliga 10 sm ga keskin pasayishni boshladi. Ammo bu vaqt ichida ko‘plab rassomlar o‘z asarlarida Orol taqdirini kuylashdi. Men, ayniqsa, o‘zbekistonlik aralist rassomlarning ismlarini ta’kidlashni istardim: Butakov., Matevosyan A.R., T.Shchevchenko, Y.Salomaxin, S.Rahmetov, N.Kalonov, qoraqalpog‘istonlik rassomlar S.Boybosinov, J.Kuttimuradov, U.Saparov, V.Serekeyev, Berdimbetovd, Lepesov J. ammo rassom N.Sultonovning eng o‘ziga xos xususiyati shundaki, u dengizni haqiqiy, tabiiy janrda tasvirlagan.

Shuningdek, yosh rassomlardan biri Saidbek Sabirboyev tomonidan ishlangan asarlarga nazar tashlasak, rassomning asosiy mavzusi vatani Qoraqalpog‘istondir. Qumli shamollar, sho‘r botqoqlar, g‘oyib bo‘lgan Orol mamlakati, Qizilqum va Qorakum ikki cho‘lining cheksiz kengligi, Ustyurt platosi, qadimiy tepaliklar va nekropollar aks etgan. Qozoq tarixchisi va etnografi Chokan Valixonov shunday yozgan: "Qoraqalpoqlar cho‘llarda birinchi shoir va qo‘sishchilar tomonidan kuylanadi". Endi esa rassomlarni ham qo‘sishimiz mumkin.

Uning asarlarini boshqa hech kim bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Saidbek Sabirboyevning hayotga o‘ziga xos ajoyib va betakror qarashlari bor. U tasvirlaydigan dunyo hayajonli, hech kimni befarq qoldirmaydi, balki energiya beradi. Sabirbayev haqiqiy eksperimentator bo‘lgani uchun. U yangi narsalarni sinab ko‘rishdan qo‘rqmaydi, davom etadi. Uning rasmlarida siz "siz bilan gaplashayotgan" Orolni, go‘zal qoraqalpoq ayollari va o‘g‘illarini o‘z erlarining kelajagi haqida o‘layotganini ko‘rish mumkin.

Rassom bir so‘z aytmasdan ko‘p narsani ifoda etishi mumkin. Uning uchun hamma uning rasmlarini aytadi. Og‘riq, his – tuyg‘ular, orzular va haqiqatni ko‘rsatish kerak, shunda odam sizning rasmlaringiz yonida turib, muallif uchun Orol fojiasi u bilan abadiy qoladigan narsa ekanligini tushunadi — deydi Saidbek Sabirbayev.

Dengiz bilan uchrashishdan barcha his-tuyg‘ularni his qilish uchun rassom uning qirg‘og‘ida bir necha bor bo‘lgan. "Uning fe’l — atvorini bilish mumkin emas, agar siz sho‘r havo bilan nafas olmasangiz, kechqurun ufqqa qanday ulanganini ko‘rmasangiz", - deydi Saidbek Sabirbayev.¹

Uning Muynakka ijodiy sayohatlari har safar kashfiyat, kichik shaharcha o‘z aholisi uchun qanday qilib Koinotning markaziga aylanganini his qilish va tushunish imkoniyatidir. Ijodiy asarini yaratishdagi ilmiy izlanishlar natijasida bir necha silsila asarlar vujudga keldiki, ularning xar biri alohida asar sifatida e’tirof etish mumkin. Misol uchun Sabirbayev Saidbekning asarlarini aytadigan bo‘lsak, unda Qoraqalpoq xalqi suv tanqisligidan aziyat chekayotganlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tasvirlangan har bir obraz va detallar bir-biriga uzviy bog‘langanki, unda har bir bo‘linma va holatlar bir-birini to‘ldirib, aynan ushbu qoralama orqali “kompozitsiya” nomli tushunchani nozik xis qilish xislatga egaligini kuzatishimiz mumkin. Uning asarlarida Qoraqolpoq xalqi tarixi, ularning madaniyati, urf–odatlari va an’analari xaqida tasvirlangan.

Biz Orol dengizini o‘z asarlarida aks ettirgan rassomlar haqida fikr bildirar ekanmiz, ularning ijodining chek chegarasi yoq. Ularning har birini asarini kuzatar ekanmiz dengizning qanchalik limmo lim to‘la mavj bilan tolqinlanayotganlarini yoki aksincha uning tobora qurib sahroga aylanib borayotgani fojeasini ko‘rishimiz mumkin. Men ham o‘z ilmiy tadqiqot ishimda Orolning bugungi kundagi holi uning mamlakatimiz uchun qanchalik ekologik muammolarga olib kelishini, uning ko‘rinishini tasvirlab, kelajak avlod uchun manbaa sifatida qoldirishni o‘z oldimga maqsad qilib qoydim.

¹https://plov.press/blogs/all/muzyka_stepey_i_spyashchiy_aral_udivitelnaya_zhizn_v_polotnakh_karakalpakskogo_khudozhnika_saidbeka_/

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Orolning kelajagi uchun har birimiz kurashmog‘imiz lozim. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: «Orol taqdiri – million-million insonlar taqdiri, demakdir. Shunday ekan, biz o‘z taqdirimiz, farzandlarimiz kelajagi uchun kurashmog‘imiz zarur».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzARB masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.
2. Аҳмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиция, самобытность, диалог. –Ташкент, 2004
3. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 10-sон.
4. Султонова Дилшода Намазовна Аральское море в творчестве живописца Намоза Султонова.
5. Шухратжон Хуррамов Савицкий и каракалпакские художники 4 июня, 2017.

O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA XORAZMLIKLAR OBRAZLARI TALQINI

Ruzmetova Surayyo Bekpulat qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Rangtasvir (dastgohli rangtasvir) magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tasviriy san'atida xorazmliklar obrazlarini talqinqlishning ahamiyati va milliylikni aks ettirishdagi muammolar, asosan milliy obrazlar aks etgan tasviriy san'at asarlarning ahamiyati haqida ,ijodkor oldida turgan vazifa va uni qaytarzda bajarish yo'l yo'riqlarini ko'rsatib berishga harakat qilindi. Mazkur mavzuni to'liq yoritishga qaratilgan bu maqolada bo'lajak rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xorazmliklar, obrazlar, eksperimentator.

THE IMPORTANCE OF THE NATIONAL PORTRAITS IN THE WORKING OF A PAINTING WORK

Annotation: This article describes the importance of the national portraits in the working of a painting works of Uzbekistan and describing national portraits problems mainly about significance of describing national images of Khwarezmians in painting artworks. The task facing the artist, and how to accomplish it, the work of Uzbek and other nation portrait artists who worked on this topic and their style are studied. This article, designed to fully cover this topic, focuses on the information that future artists should learn.

Key words: Khwarezmians, portraits, images, the experimenter.

Xorazm vohasida yashovchi asl xorazmliklarning obrazlarini qay tarzda tasvirlashni o‘rganadigan bo‘lsak, Xorazm halqining milliy madaniyatini tubdan o‘rganishimiz kerak. Xorazm xalqining obrazi qanday? degan savolga birinchi bo‘lib javobni ularning milliy urf-odatlari, an’analaridan kelib chiqqan holda qidiramiz. Xorazm xalqining millik etnik marosimlari, qadimdan bugungi kungacha yetib kelgan, asosiysi xorazm xalqining asl shu vohadan ekanini ko‘rsatib turuvchi tashqi ko‘rinishi, undagi obrazni yaratib beruvchi detallar muxim rol o‘ynaydi. Bu kabi nozik detallarni o‘rganishda asosiy yordamni Xorazm etnik tarixi va bir nechta adabiyotlar va asl voha ahlidan olingan ma’lumotlar yordam beradi.

Xorazmliklar obrazini o‘rganar ekanmiz butun dunyo insonlariga o‘xshab voha ahliding obraziga ham har xil omillar tasir qilganiga guvoh bo‘lamiz, yani vohada yashovchi bitta insonning obrazi xorazmlik madaniyati ilk shakillangan davrdan bugungi asrgacha ko‘plabtasirlarga uchradi. Masalan, oldin Xorazm madaniyatida mavjud bo‘lgan milliy marosimlarda va shunga moslab kiyilgan etnik xalq obrazini yaratuvchi liboslar (chopon, bosh kiyimlar sherozi, ayollarning taqinchoqlari, ro‘mollari, oyoq kiyimlari va h.k) bo‘lgan. Afsuski ko‘plab milliy an’analar qatorida milliy obrazlar ham davr silsilasiga uchradi va uchrayapti.

Bugungi kunda milliylikni, o‘zlikni saqlab qolish muxim ekanini tushunib yetgan yetuk inson sifatida tarixni iloji boricha zarar yetkazmay o‘zgartirmay saqlab qolib kelasi avlodlarga ham shu sof holida yetkazib berishimiz va kelajak avlodga ham buning ahamiyatini o‘rgatishimiz muxim.

Obraz yaratishda portret janrida ijod etgan ijodkorlarning asarlari bilan tanishib ular qo‘llagan uslublardan kerakli bilimlani olamiz. Portret janrida ijod qilib takrorlanmas obrazlar yaratgan ijodkorlardan: Malik Nabihev, Pavel Benkov, Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev ishlagan asarlaridan ayniqsa portret janridagi ijodlari bilan O‘zbekiston tasviriy san’atiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Pavel Benkovning aynan portret janridagi ijodiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak unda asosan o‘sha davrning milliy ayol va qizlarining impressionism uslubidagi tasvirini ko‘rishimiz mumkin. Rassomlarning har biri

alohida dunyo alohida olam shuningdek asarlari ham o‘ziga xoslikni kasb etadi. Ularning asarlaridagi kompozitsion yechim va ranglar o‘yini yosh ijodkorlarga maktab vazifasini o‘taydi. Yosh ijodkorlar ularning ijodidan ilhomlangan holda o‘z ustida ishlab turli oqimva janrlarda ishlab, o‘z salohiyatlarini sinab ko‘rishmoqda. Ijodga endi kirib kelayotgan ijodkorlar o‘zining shaxsiy fikr doirasidankelib chiqibva dunyoqarashiga ega bo‘lib, o‘z asarlarida o‘ziga xoslikni turli tajribalar bilan ko‘rsatib kelishmoqda. Bugungi kunda biz bunday tajribalarni ko‘pincha kompozitsion tarzdaishlangan portretlarda kuzatishimiz mumkin.

Rangtasvirchi rassom bo‘lish degani bu oddiy insonlardan farq qilgan holda Alloh tomonidan tug‘fa qilingan intuitiv hisga ega shaxslardir yani, olamni atrof muhitni oddiy odamlar ilg‘ay olmagan tarzda kuzata olish, go‘zal ranglarda, chiroyli shaklda va takrorlanmas chizgilarda ko‘ra olish qobiliyatiga ega insonlardir. Shu bilan birga rassom faqar bular bilan chegaralanib qolmay o‘zining nazariy bilimlarini ham rivojlantirib borishi va o‘z salohiyatini takomillashtirishi lozim, faqat shu tarzdagina takrorlanmas ijod maxsullari yaratishi mumkin. Rassom ijodiy asari ustida agar portret janrida bo‘lsa nafaqat ilohiy qobiliyati balki portret janriuchn zarur keakli bilimlar bo‘lmish odam anatomiyasining plastic yechimlari, ranglarning uyg‘unligini, asarning kompozitsion yechimini toppish ustida ham isholib borsa maqsadga muofiq bo‘ladi. Masalan bitta portret janridagi asar uchun eng muximi bu uning kompozitsion yechimining chiroyli topilgani va asar qahramonining obraqi chiroyli shaklda topilgani muxim va asarni muaffaqiyatgaolib chiquvchi omillardir. Rassomga o‘z asarida detallashtirish ahamiyatli bo‘lib, ijodkor asarida foydalangan har bir detal kompozitsiyada muxim ahamiyat kasb etishi va asarda foydalanilgan har bir detal asar qahramoning obrazini ochib berishda zarurdir. Bular obrazni tasvirlashda asarning kompozitsion yechimini muaffaqiyatli topib beruvchi detallardir.

Rassom milliy portret yaratishda ayniqsa kerakli bilimlarga ega bo‘lishi zarur va bu asarni mukammal tarzda chiqishida katta rol o‘ynaydi. Milliy obraz bo‘lmish Xorazm xalqining etnik obrazini yaratish haqida gapiradigan bo‘lsak yuqorida sanab o‘tgan omillardan tashqari portretchi rassom uchun shu vohaning etnik tarixini

o‘rganish kerakli bilimlarga ega bo‘lishi muhim. Xorazm vohasida yashovchi inson obrazini yaratish uchun voha aholisining bugungi kunda davom ettirib kelayotgan an’analariga tayangan holda obraz yaratishga kirishiladi, milliy tashqi ko‘rinish, voha uslubida ishlangan aksessuarlar kostyumlardan foydalanib kompozitsion yechimda obrazlar, xorazmlik inson tipajini topishga erishish mumkin.

Xulosa:

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston tasviriy san’atida portret janrida yaratilgan asarlarning ahamiyati katta va biz bugungi kunga kelib portret janrida ishlangan asarlarning milliy ruhda va yangicha talqinlarini aynan yosh ijodkorlar ijodida ko‘rishimiz mumkin. Portet janrida yaratilgan asar nafaqat inson yuz qiyofasi balki boshqacha yondashuv milliylik ruhiyatini yangicha talqinda kiritish lozim. O‘zbekistonning milliy qadriyatlari, mentaliteti va o‘zbek obrazlariga xos bo‘lgan xususiyatlar orqali ochib berib ko‘rsatish lozim. Shuningdek, Xorazm tarixi qadimga borib taqaladi va voha aholisi o‘zlarining etnik madaniyatini milliy an’analarini bugungi kungacha iloji boricha saqlab qolishga harakat qilishmoqda va milliy marosimlarida, urf-odatlarida bugungi kungacha saqlab kelajak avlodgacha yetkazib kelishmoqda. Shu sababdan bugungi kunda xorazm xalqining etnik madaniyatini ko‘rsatib bergen obrazlar yaratish ijodkor rassomlarning muxim vazifalaridan biri bo‘lib maqsadimiz milliyligimizni, o‘zligimizni saqlab qolishimiz va kelajak avlodga go‘zal shaklda yetkazib berish bo‘lishi kerak va asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib davom etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Н.Р Живопись Центральной Азии XX Века: традиция самобытность диалог. – Ташкент 2004
2. Nazarova.Z O‘zbekiston rangtasvirida portret janrining yangicha talqinlari. Central Asian research journal for international studies.
3. <https://uz.M.wikipedia.org>
4. <https://gigafox.ru>
5. lyceum@wiut.uz

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI
MASHG'ULOTLARDA DIDAKTIK O'YINLARNI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

Ne'matova Munojat

JDPU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil etishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Didaktika, o'yin, ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi.

Abstract: In this article, the game occupies the main place in the activities of primary school students. Didactic games are of particular importance in organizing the mental and motor activity of students during the period of primary education.

Key words: Didactics, game, education, student, teacher.

Аннотация: В данной статье игра занимает главное место в деятельности учащихся младших классов. Дидактические игры имеют особое значение в организации умственной и двигательной активности учащихся в период начального обучения.

Ключевые слова: Дидактика, игра, образование, ученик, учитель.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu qo'llanmada ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini olib berishga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ta'im o'quvchilarga ko'nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni

mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. Ta’lim jarayoni — bolalar xotirasining boyishi, ular nutqi va tafakkurining o’sish, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo‘ladigan vaziyatdir. O‘yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o‘yin turlariga qarab, ob’yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi. O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma’lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o‘yin — ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy maqsadlarga erishuvga, ya’ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi.

Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta’limning samarali bo‘lishiga, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, ona tilidan nazariy bilimlarni oson egallahshlariga, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning ona tili darslari uchun maqsadi- o‘quvchilarning ona tili fanidan olgan bilimlarini yoki past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilimini yanada mustahkamlab olishdan iborat. O‘quvchilarga nafaqat ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan emas, balki tarbiyaviy jihatdan ham bilim berib borishdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, aynan, ona tili darslarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning tashkil etilishi erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati, atrof olamdagagi jamiyatning qonunlarini o‘rganib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi ham ona tili darslarida olgan bilimlarini mustahkamlab takomillashtirish, yana ona tilining bir qator fonetika, grammatika, morfemika, sintaksis, so‘z birikmasi, so‘z, gap kabi tushunchalarini o‘quvchilarga ham aqliy jihatdan ham muntazam ravishda birinchi sinfdan to to‘rtinchi sinfgacha o‘z ona tiliga bo‘lgan muhabbatini uyg‘otish va o‘z nutqida ravon va to‘g‘ri gapira olishini, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishini o‘rgatish asosiy maqsadi sanaladi.

Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra 4 omilni o‘z ichiga oladi:

1. O‘yinning vazifasi.
2. O‘yinning harakati.
3. O‘yinning qoidasi.
4. O‘yinning yakuni.

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan, “Ishoralar” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: Bir amalli masalalarni og‘zaki yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quv dasturi bilan bog‘liq holda bo‘lib, uning vazifasi va maqsadini amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamohanglikda tushiniladi darsdan tashqari vaqtida tashkil etilgan jarayonda o‘quv-reja asosida rejalashtirilgan mashg‘ulotlar.

Bugungi kunda maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgansinfdan tashqari mashg‘ulotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sinfda tashqari mashg‘ulotlar ham tarbiyaviy, ham ta’limiy bilim berish bilan birgalikda o‘quvchilarning hozirgi davr talabiga mos keladigan holda tayyorlash, ayniqsa, bolaning psixologiyasi va yoshiga mos holda tashkil etish kerak.

Ona tili darslarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bolalarga uzlusiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning ma’naviy bilimini oshirishga qaratilgan.

Didaktik o‘yinlar shakli bo‘yicha bolalar bog‘chasida o‘tkaziladigan ijodiy o‘yinlardan farq qiladi, o‘qituvchining o‘zi hikoya qilib tushuntiradi va o‘quvchilardan birma-bir so‘raydi va shu bilan a sifatida mustahkamlaydi. Bu o‘yinlardan butunlay farq qiladi.

Didaktik o‘yinlar, eng avvalo, o‘qitish maqsadiga xizmat qiladi va o‘tkazish talab etiladi, qiziqarli, zavqli va o‘z navbatida talabalar uchun tushunarli darajada. G‘alaba qozonish uchun o‘yin, bolalar mashqlarni chin yurakdan bajaradilar, har bir topshiriqni bajarishga ko‘nikadilar mukammal va buning natijasida didaktik vazifalarni bajarishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o‘yinlar yordam beradi har bir darsning maqsadini, har bir mashqning mohiyati va vazifalarini yaxshiroq tushunish.

Didaktik o‘yinlar orqali ta’limning vizualligi ortadi. Bu, o‘z navbatida, sabab bo‘ladi bolalarning o‘qituvchining aytganlarini osongina tushunishlari, ya’ni qoidalarga ongli ravishda amal qilishlari o‘z-o‘zidan didaktik o‘yin. Didaktik o‘yinlarning tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari uni shunday qiladi, talabalar faoliyatini oson tahlil qilish mumkin. Shuning uchun ham boshlang‘ich matabning barcha bolalari o‘yin davomida katta qiziqish bilan yoshi ish.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bo‘sh qolmasliklari, ona tili faniga bilan qiziqishlarini nazarda tutgan holda tashkil etish o‘quvchilarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

- to‘garaklar tashkillashtirish;
- yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar;
- fanlardan olimpiadalar o‘tkazish;
- ko‘rik tanlovlар tashkillashtirish;
- adabiy kechalar o‘tkazish;
- ekskursiyalar uyushtirish;
- tadbir va bayramlar rejalashtirish;

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ko‘proq to‘garaklari ona tili darslari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar dars jarayonida o‘zlashtirolmagan mavzularini qaytadan mustahkamlab olishadi va dars jarayonidagi egallagan bilimlarni kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishlarni amalgaloshirish doirasida sinf rahbarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulot

paytida o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan shug‘ullanishi, uning fikrashi, o‘z nutqini bayon eta olishi, ichki dunyosi kechinmalari barcha xislatlarini o‘rganishi lozim.

Didaktik o‘yin: «Narvoncha» Didaktik topshiriq: birinchi o‘nlik ichida qo‘sish va ayirish jadvalini yaxshilab bilib olish. O‘yin topshirig‘i: «Narvoncha»dan boshqalarga nisbatan tezroq yugurib tushishga intilish, buning uchun bir necha misolni tezroq yechish. O‘qituvchi uyga berilgan topshiriqni tekshirib bo‘lganidan keyin: «Bolalar, hozir men zinalar chizaman. Eng yuqoridagi pog‘onaga 1 sonini, ikkinchisiga +2, uchinchisiga +3 va hokazo yozuvlarini yozib qo‘yaman. Raqamlarning pog‘onalarda qanday joylashganini yaxshilab ko’rib oling va natijani mustaqil toning. 1 va 2 — pog‘onadagi sonlarni qo‘shtganingizdan keyin navbatdagi pog‘onaga o‘tavering. Qani, «Narvoncha»dan kim birinchi bo‘lib tushadi? Oradan 2 minut o‘tgach, bir necha o‘quvchi javob berish uchun qo‘l ko‘taradi. O‘qituvchi bolalarning hamma javoblarini (jumladan, noto‘g‘ri javoblarini ham) yozib boradi. So‘ngra butun sinf ovoz chiqarib «Narvoncha» masalasini yechishga o‘tadi. O‘qituvchi g‘olib chiqqan bolalarni maqtab qo‘yadi, yana bitta «Narvoncha» chizib, uning yuzasidan beriladigan javob tez va aniq bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tadi.

ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2009.
2. M.Nurmatova. Ifodali o‘qish to‘garagi. “Til va adabiyot ta’limi” 2018-yil. 1-son.
3. S.Qurbanov Xorazm viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o‘qituvchisi. “Didaktik o‘yinlar”
4. Ne’matova M. Sinfdan tashqari ishlarda Grammatik o‘yinlar “Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari” Jizzax 2022.
5. Natlib.uz
6. Arxiv.uz

DEVELOPMENT OF TOOLS TO IMPROVE THE USE OF ABBREVIATION TECHNIQUES IN SIMULTANEOUS INTERPRETING

Mukhitdinova Shakhrizoda Shukhratovna

Master Student of Uzbekistan State University of World Languages

shakhi.english.translator@gmail.com

ABSTRACT

This article presented a modern view of various aspects of the study of simultaneous translation technologies. Technical issues were discussed in detail - innovative equipment for simultaneous translation. Performing simultaneous translation involves the use of an appropriate set of technical means. The translator must know this equipment and be able to use it, since the conditions of his work and the conditions for the perception of the translation by the audience depend on this. The work used materials from the websites of translation companies and bureaus providing simultaneous translation services, as well as electronic resources containing information about video remote and machine translation.

Key words: simultaneous interpretation, consecutive interpretation, video remote interpretation.

INTRODUCTION

The relevance of research. Today, in times of technological progress and globalization, people still, if not more, need translation of documents, oral communication at business meetings and various conferences. In translation practice, written and oral translation are distinguished. The work of any translator includes familiarization with this topic, working with a dictionary, compiling a glossary and constantly striving to keep abreast of political events. However, the work of an interpreter cannot be compared with the translation activity of a person who translates

in written form. For oral, especially simultaneous, translation, the most typical thing is the lack of time to think about it. In conditions of a general acceleration of the pace of life, this problem is increasingly critical. A more detailed study of the thought processes, often subconscious, involved in oral consecutive and simultaneous interpreting is required to maintain and improve the quality of interpreting.

Purpose of the study. Based on the relevance, in order to stimulate the successful development of the thought process and improve the quality of the interpreter's work in preparation for political events and during translation at them, the purpose of the study is to identify the correlation between the choice of interpretation strategy by the translator and the type of event in which the translator participates.

Taking into account the goal, we highlight the tasks of this research work:

1. Define the concepts of "translation strategy", "political event", "factors for choosing a translation strategy".
2. Familiarize yourself with the classifications of the above-mentioned terms and term combinations.
3. Analyze the influence of various conditions of the communicative situation of the event as factors on the translator's choice of translation strategy.

The theoretical significance of this article lies in the in-depth coverage of the issue of deducing spontaneous and intuitive thought processes occurring in the mind of an interpreter during the preparation and implementation of oral translation. This study contributes to the creation of a stimulus for the development of a knowledge base in the field of translation strategies research. In addition, some new aspects of the study of the problem of applying translation strategies are revealed, namely the influence of the type of event on the choice of translation strategy.

The practical significance of the work lies in the fact that the collected material can be used in practical recommendations for interpreters in preparation for work, to build a certain working system, a strategy for working at political (business) events. Also, the article material can be used by a methodologist - an interpreting teacher - to set an educational goal when drawing up programs and conducting classes.

LITERATURE ANALYSIS AND DISCUSSION

In order to define the term “translation strategy”, it is necessary to first form a clear understanding of the concept of “strategy”. This term has unclear semantics. A.G. Vitrenko in his scientific article about “Translation Strategy” writes that this concept was “returned” from the military field of knowledge to the terminology of translation studies [1]. The proof can be provided by definitions from the explanatory dictionary of S.I. Ozhegova: “1. The science of warfare, the art of warfare. Theory of military strategy. 2. General plan for waging war and combat operations. Victorious village.”

On the other hand, it can be assumed that this term was borrowed by domestic translation scholars from the English language, since this word is used quite widely among English-speaking researchers. A.G. Vitrenko writes about a certain vagueness and semantic breadth of the term “strategy” in the English language. According to Ozhegov, in Russian this concept took the following form: “3. Peren. The art of leading social and political struggles, as well as the general art of planning leadership based on correct and far-reaching forecasts.”

Carrying out simultaneous translation involves the use of an appropriate set of technical means. The translator must be able to use the equipment, since the conditions of his work and the conditions for the perception of the translation by the audience depend on this. The operating principle of the simultaneous translation installation is as follows: the speaker’s speech is transmitted to the interpreter through headphones, the translator, in turn, speaks the translation into a microphone, from where it is broadcast to the listener [10].

The simultaneous interpreter is located in a special room equipped with soundproofing. In stationary conference rooms, this is a small room with a table with a remote control and two chairs for synchronized speakers. If the hall is small, then the interpretation booth is located above the level of the seats and is equipped with a window with a wide view, through which the interpreters can see the speaker and the

hall. In large halls, a television monitor is installed on the table of synchronized interpreters, in which the speaker is visible [6].

In rooms temporarily used for simultaneous translation, a booth with a window or, as translators say, a “booth” (from the English “booth”) There are usually several such booths depending on the number of working languages of the congress or conference. The name of the cabin is determined by the language in which its translators work, for example, “Russian cabin” provides reproduction of the translation of the meeting into Russian,

“French cabin” – in French, etc. [4]. The simultaneous interpretation booth is designed for two people: one of them translates, the second listens to the translation and helps the first, for example, writes numbers, titles, surnames for him [6].

The cabin equipment consists of soundproof headphones, a microphone and a control panel [15]. Many synchronized speakers prefer to wear only one earphone to better monitor their voice and the speaker’s voice. The interpreter turns his own microphone on and off, which allows him to consult or talking to a colleague while working [4].

You should not place the microphone too close to your mouth, as individual sounds may become louder, which will be uncomfortable for listeners. It is recommended to work with a medium volume level of the incoming signal in order to hear your own translation and monitor your voice [5].

Two pairs of headphones are connected to the simultaneous translation console; sometimes they have a built-in microphone. On the remote control there is a microphone switch (right-left microphone), two microphone activation buttons and two volume controls (for each pair of headphones), as well as a channel switch for different languages, for example, channel 1 - Russian, channel 2 - English [6].

In addition, the control panel may have alarm buttons for communication with the speaker. Using these buttons, the interpreter can light up light signals in front of the speaker: “speak into the microphone”, “speak louder”.

In recent years, the so-called radio version of the installation for simultaneous interpretation, using ultrashort range radio waves, has become widespread. In this case, conference participants receive headphones or a headset with a translation language switch and volume control [8]. This allows the conference participant to listen to the presentation while moving around the room or even going out into the foyer.

With the advent of new technologies, it became possible to transmit video over the Internet, thanks to which the video remote translation service began to develop.

VRI (video remote interpreting) is a method of providing interpretation services using web cameras or cameras built into mobile devices. As a rule, in a situation of video remote interpretation, the communication participants are in the same room and interact with the translator using a computer or other device with Internet access and a video camera. Video remote interpretation provides the opportunity to receive professional interpretation in one of two modes: video call mode and video conference mode, when the conference participant sees a partner and an interpreter on the same screen [3].

No special equipment is required to use VRI. Often, Skype becomes the platform for video remote interpretation as the most common and accessible program with a video communication function. Many companies that provide VRI services create their own apps that allow you to directly connect with available translators. There are similar applications on the Russian translation market - for example, Cloud Interpreter. Translation companies and organizations, including government agencies, can use this platform to organize communication using it. The platform is developed for Android and iOS, that is, the translator can be accessed in video mode on a smartphone and tablet [2].

Conducting negotiations by phone or via Skype with the participation of an interpreter is one of the current ways to organize business contacts at a distance. Phone calls or online messengers have long proven themselves to be convenient and effective for establishing business connections. A conference call allows you to

discuss important aspects of your business in real time. At the same time, the simultaneous interpreter ensures the accuracy of understanding between the parties [11].

One of the means of improving the quality of translation activities is the automation of the translation process, which until recently was mainly solved within the framework of the translation of written texts [7]. Machine interpreting is a relatively new development that combines two technologies: machine translation and voice recognition software, in which automated software translates text from one language to another. It should be noted that similar technologies already exist, for example, the famous Siri application developed for iOS. The app uses natural speech processing to answer questions and make recommendations. Perhaps in the future, this application will be able to be used by every iPhone owner during an international conference [12], because today “Siri” supports 21 languages, including English, Arabic,

However, the main disadvantage of voice recognition software is that the program starts translating and converting the speaker’s speech as soon as it hears the first words. Developers face a difficult challenge: they must upgrade the technology so that it can predict and translate the speaker’s speech before he finishes speaking. To do this, developers need to turn attention to the grammatical features of languages, for example, in the case of languages where the verb is placed at the end of the sentence - German, Turkish, etc.

In one of his books, “The Age of Spiritual Machines,” Ray Kurzweil, a futurist and expert in the field of artificial intelligence, predicted that by 2029 computers will reach the level of live translation. “Of course, it [the computer] is far from the level of a human translator, but it will translate ordinary conversation and business negotiations quite tolerably,” notes Ray Kurzweil [9].

In 2005, Alex Waibel, director of the Center for Advanced Communication Technologies (interACT), pioneered research into machine simultaneous translation by creating a special device for speech recognition using electrodes. InterACT is a

joint venture between the German University of Karlsruhe (Universität Karlsruhe) and the American University of Carnegie Mellon (CMU).

During a teleconference between the two universities, Carnegie Mellon graduate student Stan Jou spoke quietly in Chinese while everyone at the conference heard him speak English. The device, which synchronously (with a slight lag of a few seconds) translated Wall Jow, perceived not sound, but muscle movements using

11 electrodes glued to the face and neck of a graduate student. Using these signals, the computer translated Chinese words into English and output synthesized speech through a speaker. During the demonstration, there were some inaccuracies in translation, when the machine confused two words with similar sounds [13].

Thus, by exploring new technologies for machine interpreting, you can conclude that the outcome of such technologies is still unpredictable. This method is quite unreliable, since computer programs do not take into account all the features of the language. In addition, it should be noted that speech recognition systems may be inaccurate and even useless when it comes to accents and dialects, extraneous noise and the slightest error in pronunciation. Unlike written language, human speech is unpredictable, and modern technologies, despite the development of artificial intelligence, still lack the human intuition and thinking to ensure full recognition of human speech.

CONCLUSION

The translator's task is to coordinate the parties and provide the opportunity to achieve joint decisions, plans and actions. When starting to translate business or political negotiations, the translator must take into account the personal qualities and values of both parties, be able to look at the problem through the eyes of the participants and formulate the translation taking into account the cultural characteristics of the country [21].

For example, French partners tend to conduct business negotiations much more lively than their foreign counterparts. They may interrupt another participant in communication to express their disagreement and provide counterarguments. In such

a situation, the translator should choose those translation strategies that will not “slow down” the progress of the discussion. There are situations when the translator is not sure or simply does not know the meaning of the word, so he has to resort to the strategy of sign translation [22, p. 223].

Telephone conversations also have their own characteristics. Participants in most cases try to allocate less time for such discussions. In this regard, the original messages are sometimes formulated illogically and chaotically, and redundant information appears. Thus, the problem of the lack of logical stress appears. To smooth out this situation, the translator uses strategies of waiting, maintaining linearity, and probabilistic forecasting.

Also, to identify a macro strategy, the situation is taken into account completely. If the translator knows the topic of the event in advance, he, as a rule, compiles a glossary on it, studies current figures in a particular field, etc. If there is a little more time for translation, the translator resorts to the trial and error strategy, since he has the resource to find the optimal translation option for a given topic [23].

REFERENCES

1. Alikina E.V. Taxonomic aspect of oral translation / E.V. Alikina // Bulletin of the Udmurt University. – 2011. – No. 2. – P. 59–66.
2. Video remote interpretation (VRI) and its prospects. – URL: http://www.norma-tm.ru/videoudalenennyi_perevod_vri.html.
3. Video remote translation and its prospects. – URL: <http://www.primavista.ru/blog/2017/10/17/videoudalennyiy-perevod-i-ego-perspektivyi>.
4. Visson L. Simultaneous translation from / L. Visson. – M.: R. Valent, 1999. – 272 p.
5. Duplensky N.K. Simultaneous and consecutive translation. Recommendations for practicing translators / N. K. Duplensky - M.: R. Valent, 2015. - 52 p.

6. Miram G. E. Profession: translator / G. E. Miram. – K.: Nika-Center, 2006. – 160 p.
7. New technologies in the field of interpretation. – URL: <https://articlekz.com/article/19603>.
8. Equipment for simultaneous translation. – URL: <http://unit-av.ru/equipment/translation/>.
9. Ray Kurzweil on interpreting technologies. – URL: <http://www.primavista.ru/rus/articles/rej-kurcvejl-o-tehnologiyah-perevoda>.
10. Sanarova E. G. On the issue of the features of oral translation and its role in the modern world / E. G. Sanarova // Scientific Bulletin of YuIM. – 2016. – No. 1. – P. 72–75.
11. Simultaneous interpreter in Skype. – URL: <http://lan-lab.ru/uslugi/perevodchik-po-skype/>.
12. Modern technologies in the field of simultaneous translation. – URL: http://issledo.ru/wp-content/uploads/2016/11/Sb_k-10-6.pdf.
13. A machine for simultaneous translation of live speech has been created. – URL: <http://www.membrana.ru/particle/9322>.
14. Chernov G.V. Theory and practice of simultaneous translation / G.V. Chernov. – M.: International Relations, 1978. – 280 p.
15. Shiryaev A.F. Simultaneous translation / A.F. Shiryaev. – M.: Voenizdat, 1979. – 183 p.

UMUMTA'LIM MAKTABLEARI MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUMTOZ MUSIQA NA'MUNALARIMIZ BILAN TANISHTIRISH

Bannaqulov Mexroj Furqat o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti musiqa ta'lif kafedrasini
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek mumtoz an'anaviy musiqasi va ijro yo'llari haqida
ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari mumtoz musiqaning o'quvchi yoshlar ta'lif
tarbiyasi ta'siri masalasi ham yoritilgan. Maqolada an'anaviy musiqamizning
ijrochilik yo'llari va maqomlarning tarkibiy qismlari to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: Mumtoz musiqa, ta'lif, kuy, ashula, usul, cholg'u asboblari.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация об узбекской классической традиционной музыке и способах ее исполнения. Кроме того, освещается вопрос о влиянии классической музыки на воспитание учащейся молодежи. В статье рассматриваются исполнительские пути нашей традиционной музыки и составляющие статусов.

Ключевые слова: классическая музыка, образование, мелодия, пение, метод, инструментовка.

ANNOTATION

This article covers Uzbek classical traditional music and performance tracks. In addition, the issue of the influence of classical music on the educational education of the student youth is also covered. The article will talk about the ways of performing our traditional music and the components of statuses.

Keywords: classical music, education, singing, singing, method, instruments.

KIRISH

Talablarda mumtoz musiqa bilan shashmaqom to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishda shuni ham alohida ko‘rsatib borish kerakki, kelgusida bu vazifa musiqa darslarida maqom kuylarini tinglatilganda mumtoz musiqa va shashmaqomdagi ya’ni kuy va qo‘sish yo‘llaridagi doira usulari katta axamiyatga ega.

Maqom va mumtoz kuy yo‘llarining shakl olishiga doira usulari qanchalik katta o‘rin tutishini shundan ham bilish mumkinki, cholg‘u bo‘limlarining kuy yo‘llari va ko‘pchilik shubalar hamda ularning shaxobchalar, ko‘pincha doira usullari bilan nomlanib kelingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Har bir maqomning cholg‘u qismlari “tasnif”, “tarje”, “gardun”, “muhammas”, “aqil” kabi nomlar bilan ataladi.

Yuqori sinf o‘quvchilariga dasturda mumtoz kuy haqida ma’lumot berish bilan birga ularni almashtirish ya’ni asarlarni boshqasiga og‘ishtirish huquqi o‘qtuvchiga berilgani yozilgan shunga muofiq o‘zi puxta ijro eta oladigan maqom kuy yoki ashulasiga doira cholg‘usida yoki chapak yordamida usul chalib ko‘rsatishi mumkin.

Maqom va mumtozlikka daxldor kuy va qo‘sishlarida sodda usullardan tortib moxir doirachilar ham hayajon bilan chaladigan murakkab usullar ham mavjutdir. Shuning uchun maktab o‘quvchilariga ushbu “shashmaqom” deya ataluvchi buyuk merosimizni g‘urur va samimiyat bilan o‘zgacha ruhda dars davomida yetkazish o‘qituvchida bosh maqsad bo‘lishi lozimdir.

NATIJALAR

Biz shuni ham aytmog‘imiz, ayni muddaoki maqomda tasniflar, tarj’elar, mahammaslar, saqillar, oraz usullari, sarahbor usuli, talqinlar va talqinchalar usuli, nasrlar usuli, savtlar usuli, mo‘g‘ilchalar, qashqarchalar, soqiynomalar, uffor usullari mavjutdir.

Ularni o‘quvchilarga aytish bilan birga o‘z nota yo‘lida yozib ko‘rsatish ham mumkin.

Maqomlarning ashula bo‘limlariga esa doira usullardan tashqari, she’r o‘lchovlariga ham jiddiy ahamiyat berish lozim. Ashula bo‘limlariga kirgan shubalar “sarahbor”, “talqin”, “nasr”, “savt”, “mo‘g‘ilchalar” va turli maqomlarning o‘ziga xos bo‘lgan ba’zi ashula yo‘llari ham kuy tuzilishi va doira usuli jihatdan ancha murakkabdir.

O‘quvchilarini ashula matni bilan tanishtirish, uning mazmuni, mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati bilan uyg‘unlashgani anglatish, qadimdan g‘azalnabist bobolarimizning ijodlari dilidagi dardu g‘amlarini yoritish bilan birga she’riyatga bo‘lgan shijoatni ham ko‘rsatib beradi. Maqom kuylarining g‘azallar bilan uyg‘unlashib serjilo ma’no kasb etganligini o‘quvchlar his qilmog‘i uchun ularda turli g‘azallar bilan aytılıvchi oddiy qo‘sish yo‘llarini o‘rgatish mumkin.

Mumtoz musiqa bo‘yicha yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan musiqa o‘qituvchilarining o‘quvchilari mumtoz musiqa haqida to‘laqonli bilim, tushinchalarni hosil qilishda asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

O‘quvchilarni mumtoz musiqaga bo‘lgan munosabatlarni, qiziqishlarini o‘rganish, o‘quvchilarini mumtoz musiqani tinglash, o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlari darajasini qunt bilan o‘rganish va baholash; o‘quvchining yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari hamda musiqiy xotira, diqqat, eshituv, fikirlash xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari (cholg‘uda ijro etish, qo‘sish kuylash) va alohida iqtidorlari to‘g‘risidagi malumotlarga ega bo‘lish;

O‘quvchilarning umumiyligi hamda musiqa san’atiga, uning ayrim turlariga qiziqishiga, mustaqil bilim olishga extyoji, xalq musiqasiga bo‘lgan munosabati, ovoz imkoniyatlari, talanti, qobiliyati, bilim darajalari hamda ijro ko‘nikmalariga muofiq ular o‘rganishi mumkin bo‘lgan mumtoz namunalar repertuarini shakllantirish.

O‘quvchilarning kuy-qo‘sishlari tinglash, uni idrok etish, na’munalar ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan yordam beruvchi samarali ish usul, shall, vositalariga ega bo‘lish o‘quv mashg‘ulotlarini pedagogik, psixologik, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qila bilishi;

Dars jarayonida ko‘rgazmali metodlardan, texnik vositalardan, zamonaviy va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan maqsadga muofiq foydalanish.

In conclusion, this research sheds light on the intricate cognitive mechanisms involved in processing homonyms in Uzbek and English languages. The observed differences in semantic and phonological processing underscore the importance of considering linguistic and cognitive diversity in language studies. Future investigations could delve deeper into the neurological underpinnings of homonym processing, further enriching our comprehension of language cognition and its cross-linguistic variations.

REFERENCES

1. Bates, E., & MacWhinney, B. (1989). Functionalism and the competition model. In B. MacWhinney & E. Bates (Eds.), *The crosslinguistic study of sentence processing* (pp. 3-73). Cambridge University Press.
2. Clark, E. V., & Clark, H. H. (1979). When nouns surface as verbs. *Language*, 55(4), 767-811.
3. Gries, S. T. (2009). Quantitative Corpus Linguistics with R: A Practical Introduction. Routledge.
4. Levelt, W. J. M. (1989). Speaking: From intention to articulation. MIT Press.
5. Marian, V., & Spivey, M. (2003). Competing activation in bilingual language processing: Within- and between-language competition. *Bilingualism: Language and Cognition*, 6(2), 97-115.
6. Miller, G. A., & Charles, W. G. (1991). Contextual correlates of semantic similarity. *Language and Cognitive Processes*, 6(1), 1-28.
7. Swinney, D. A. (1979). Lexical access during sentence comprehension: (Re)consideration of context effects. *Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior*, 18(6), 645-659.

MILLIY TA'LIMDA JAHON STANDARTLARI

Xidirova Feruza To'rayevna

ShDPI ona tili va adabiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Xidirovaferuza93@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy ta'linda jahon standartlari bo'lishi va uni takomillashtirish, ta'lim maqsadlari, o'qish mazmuni va uni tashkil etishning metod shakllari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim standartlari, milliy ta'lim, individualizatsiya, tarbiyaviy yondashuvlar.

Abstract. This article describes the existence of world standards in national education and its improvement, educational goals, content of study and methodical forms of its organization.

Keywords: Educational system, educational standards, national education, individualization, educational approaches.

Har bir ta'linda milliy yoki global ta'lim standartlari bo'lishi zarurmi yoki ta'lim eng birinchi navbatda mahalliy va mintaqaviy masalalardan biri bo'lib qolishi kerakmi degan munozarali savollar hali hanuzgacha o'z yechimini topgani yo'q, fikrimcha. Mahalliy madaniyatlar, tillar, urf-odatlar, an'analar va ijtimoiy ehtiyojlar shak-shubhasizki, har bir davlat va millatga xosdir. Milliy yoki global ta'lim standartlari turli mintaqalarda ta'lim sifatining, izchilligining eng birinchi asosiy darajasini ta'minlab berishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, bu masala nihoyatda dolzarbdir. Ular umummilliy yoki keng global miqyosdagi kutilayotgan ma'lum bir ta'lim standartlarini saqlab qolishga yordam beradigan umumiyl o'rghanish maqsadlari va mezonlarini belgilashlari mumkindir.

O‘zaro bog‘liqlik va rivojlanish kuchayib borayotgan hozirgi zamonaviy dunyoda ma’lum darajadagi milliy yoki global ta’lim standarrlariga ega bo‘lish albatta har bir davlat ta’limida muhim ahamiyat kasb etadi deb o‘yayman, shubhasiz ta’lim tizimidagi harakatchanlik va malakalarning tan olinishini osonlashtirishi ham mumkin. Bu talabalarning taqqoslanadigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlashi bilan bir qatorda, ularga global mehnat bozorida qo‘rmasdan raqobatlashish imkonini beradi, bu jihat esa juda muhim hisoblanadi.

Ta’lim standartlari shuningdek tenglik va foydalanish masalalarini ham hal qilishda rol o‘ynashi mumkin. Ayniqsa bugungi kunda xususiy va davlat maktablari, xususiy universitetlar, xususiy akademiyalar rivojlanayotgan bir zamonda ushbu jihat juda dolzarb hisoblanadi. Minimal standartlarni belgilash va bu standartlar barcha talaba, o‘quvchi yoshlar uchun, ularning geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qatiy nazar, teng imkoniyatlarni ta’minlash orqali ham ta’lim tizimlari yanadaadolatli natijalarga erishishga intilishi mumkindir .

Mahalliy boshqaruv va umumiylar o‘rtasida muvozonatni saqlash nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu mintaqalarda yoki maktablarda o‘quv rejasi va o‘qitish usullarini moslashtirishda o‘quvchilar, talabalar ehtiyojini hisobga olishi muhimdir albatta natija ham shunga yarasha bo‘ladi.

Sifat darajasi, tenglik va global raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun umumiylar standartlar va ramkalarning afzalliklarini e’tirof etish bilan bir qatorda mahalliy va madaniy umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan qiymatni tan olish muhim bir jihatdir. To‘g‘ri muvozanatni ta’minlash uchun doimiy muloqotlar, hamkorlik va ta’lim tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirishga sodiqlik talab etiladi buni inkor etolmaymiz, shunday bo‘lsada, olg‘a intilmog‘imiz zarurdir.

Agarda siz google orqali qaysi mamlakatkar eng yaxshi ta’lim tizimiga ega va nima uchun deb, ma’lumot qidirsangiz, Finlandiya ta’lim tizimi dunyodagi eng yaxshi ta’lim tizimlaridan biri ekanligini bilib olasiz. Buning asosiy sababi shundaki, u yerda ta’lim har bir bola yoki shaxs uchun majburiy bo‘lgan qonun bor va hukumat uni nafaqat qog‘ozda balki amalda ham joriy qilgan, shu bilan birgalikda

maktablarda yaxshi sharoitlarni ham ta'minlagan. Balki shuning uchun o'qituvchilik Finlandiyada eng hurmatli kasblardan hisoblanadi. Bundan tashqari o'qituvchilar va professorlarning ish haqlari Finlandiyadagi boshqa kasblarga qaraganda ancha yuqori o'rinda turadi. Shunday qilib ular foydalanishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va bir qancha imkoniyatlarga ham egadirlar. Finlandiyada bog'chalardan tortib to universitetlarga cha tenglik tamoyiliga rioya qilinadi.

Milliy ta'lim tizimlari, bir davlat yoki millatning o'zining madaniyat, tillar, urf-odatlar va ijtimoiy ehtiyojlariga mos keladigan ta'limni takomillashtirishga yo'naltirilgan tizimlardir. Bu tizimlar, o'quvchilar uchun ma'naviy, intellektual va amaliy tayyorgarlikni ta'minlashni va ularga milliy va jahon standartlariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni o'rgatishni maqsad qiladi. Milliy ta'limda jahon standartlari haqida gaplashiladi, ularning maqsadlari, o'qish mazmuni va uni tashkil etishning metod shakllari haqida tushuncha beriladi.

1. Jahon standartlari va ularning ahamiyati:
Jahon standartlari, dunyo bo'ylab ommaviy ta'lim tizimlarida qabul qilingan yagona standartlardir. Ular, o'quvchilar uchun yuqori sifatli ta'limning ta'minlashini, ularga global miqyosdagi bilim va ko'nikmalarni o'rgatishni ta'minlashni maqsad qiladi. Jahon standartlari, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni, harakatchanlikni va tarbiyaviy yondashuvlarni muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Milliy ta'lim standartlari:
Har bir davlatning milliy ta'lim standartlari o'ziga xosdir. Ular, milliy madaniyat, tillar, urf-odatlar va ijtimoiy ehtiyojlar asosida belgilanadi. Milliy ta'lim standartlari, o'quvchilar uchun milliy identifikatsiyani ta'minlashni, milliy qadr-qimmatni saqlashni va shaxsiy rivojlanishni maqsad qiladi. Bu standartlar, milliy ta'limning asosiy qoidalari, mudofaa va rivojlanishini belgilaydi.

3. Ta'lim maqsadlari:
Milliy ta'limda jahon standartlari, o'quvchilarni ma'naviy, intellektual va amaliy tayyorgarlikni ta'minlashni maqsad qiladi. Ular, o'quvchilarni dunyo qarashlariga

tayyorlash, ularni insoniy va jamiyatning qadriyatlariga e'tibor qaratish, ularning o'zlarini amalga oshirish va o'zlashtirish, g'oyaviy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

4. O'qish mazmuni va uni tashkil etishning metod shakllari: Milliy ta'limda jahon standartlari, o'quvchilar uchun o'qish mazmunini belgilaydi. Bu o'qish mazmuni, fanlar, ko'nikmalar, g'oyaviy va ijtimoiy rivojlanish, tarbiya va boshqa yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. O'qishni tashkil etishning metod shakllari esa yoshlar ta'limi metodikasiga muvofiq belgilanadi, masalan, amaliy mashg'ulotlar, darsliklar, interaktiv darslar va boshqa usullar ishlataladi.

5. Individuallashtirish:

Milliy tarmaqolarda jahon standartlari va milliy ta'lim standartlari haqida gaplashiladi. Jahon standartlarining o'quvchilarga global miqyosdagi bilim va ko'nikmalarni o'rgatishni ta'minlash, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtaсидаги bog'liqlikni ta'minlash va tarbiyaviy yondashuvlarni muvozanatni ta'minlashdagi roli ko'rsatiladi. Milliy ta'lim standartlari esa milliy madaniyat, tillar, urf-odatlar va ijtimoiy ehtiyojlar asosida belgilanadi va milliy identifikatsiyani ta'minlash, milliy qadr-qimmatni saqlash va shaxsiy rivojlanishni maqsad qiladi.

Ta'limning maqsadlari ham taqdim etiladi, masalan, o'quvchilarni dunyo qarashlariga tayyorlash, ularni insoniy va jamiyatning qadriyatlariga e'tibor qaratish, ularning o'zlarini amalga oshirish va o'zlashtirish, g'oyaviy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirish. O'qish mazmuni va uni tashkil etishning metod shakllari ham muhim jihatdir. O'qish mazmuni fanlar, ko'nikmalar, g'oyaviy va ijtimoiy rivojlanish, tarbiya va boshqa yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. O'qishni tashkil etishning metod shakllari esa yoshlar ta'limi metodikasiga muvofiq belgilanadi. Individuallashtirish bu o'quvchilarining o'zlarini rivojlanishish va ularga moslashtirilgan ta'limning ta'minlanishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet saytlari
2. Kurbanova S. Yozuvchi publitsistikasining taraqqiyot tamoyillari.-Toshkent;
Muhammarrir,2012.-B
3. Azamat Shamsiyev, Ta'lim islohotlari uchun xalqaro standartlar zaruz maqolasi
;Samarqand davlat tibbitot instituti professori, Правда востока gazetasi

O'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN TEZAURUS LUG'ATLAR YARATISH ZARURIYATI

Gulhayo Po'latova G'ofurjon qizi

gpulatova2409@icloud.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bir davrda o'zbek tilining obro'sini oshirish va dunyo miqyosida yoyish uchun qilinayotgan ishlar haqidagi fikr bildirilgan. Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi elektron lug'atlarga ehtiyojni oshirganligi va o'zbek tilida tezaurusus lug'atlar tuzish zaruriyati ortib borayotgani dalillangan. Maqolada tezaurusus lug'atlarga tavsif berilgan, ularning afzalliliklari va qulayliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter lingvistikasi, o'zbek tili korpusi, elektron lug'atlar, tezaurusus lug'atlar, internet lug'atlar.

ABSTRACT

This article expresses an opinion about the work being done to increase the reputation of the Uzbek language and spread it on a global scale at a time when technology is developing at a rapid pace. It is proven that the application of computer technologies in the field of lexicography has increased the need for electronic dictionaries and the need to create thesaurus dictionaries in the Uzbek language is increasing. The article describes the thesaurus dictionaries, discusses their advantages and convenience.

Keywords: computer linguistics, Uzbek language corpus, electronic dictionaries, thesaurus dictionaries, internet dictionaries.

KIRISH

Jahon tilshunosligida XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan kompyuter lingvistikasi nutq amaliyoti uchun yangi metodologik asosni, tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlarini yaratdi. Ma’lumki, azaldan milliy til qadri, davlat tili ravnaqi, uni jahon tillari qatorida iste’molda bo‘lishini ta’minlash masalalari ko‘rib kelinmoqda. Keyingi yillarda bu siyosat darajasiga ko‘tarilishi tilimizga davlat miqyosida e’tiborning nechog‘li yuksak ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter dasturlari hamda o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish bugungi zamon talablaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnologiya asrida taraqqiyot sur’atining tezlashgani, intellektual salohiyat, texnikaning yuqori darajada yuksalishi kishilik jamiyati oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Mintaqamizdagi globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, jadal taraqqiyotni talab etmoqda. Kompyuter tizimi qulayliklar, imkoniyatlar majmuyiga va tarkibiy qismiga aylandi. Har xil turdagи elektron lug‘atlar va tezaurus lug‘atlarning yaratilishi leksikografiyaning rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.[3]

Tezaurus atamasini L.V.Shcherba "Опыт теории общей лексикографии" maqolasida shunday yozadi: "Tezaurus deyishganda, hozirgi paytda ular ko‘pincha "Thesaurus linguae latinae" ni nazarda tutadilar", ular beshta nemis akademiyasining korxonasi bo‘lib, 1900-yilda boshlangan. Xarakterli xususiyati: ma’lum bir tilda ro‘y bergen barcha hal qiluvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi va har bir so‘z ostida, ushbu tilda mavjud bo‘lgan matnlardan misollar keltiriladi. [Л.В. Щерба, 1940:10]

A.N.Baranov va D.O.Dobrovolskiy "От редакции" kitobining muqaddimasida tezaurusga quyidagi ta’rifni bergen – “maxsus tur lingvistik materialni tartibga solish

usuli bilan boshqalardan (xususan, tushuntirish, ikki tilli va hokazo) farq qiladigan lug‘at. Tezaurusda til birliklari oddiy lug‘atda bo‘lgani kabi alifbo tartibida berilmagan, lekin ularning ma’nosiga qarab guruhlangan”. [Добровольский, Баранова, 1965: 4]

Tezaurus yaratish borasida xorijda muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ingliz tilidagi lug‘at-tezaurus, V.Dal tomonidan yaratilgan izohli lug‘at-tezaurus, T.F.Yefremovaning rus tilidagi yangi so‘zlarning lug‘at tezaurusi, S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova tomonidan yaratilgan rus tilining izohli lug‘ati-tezaurusi, Fasmer Maksning rus tilining etimologik lug‘ati-tezaurusi, yuridik terminlar tezaurusi yaratilgan.[1]

O‘zbek tilshunosligida ham kompyuter leksikografiyasi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbek tilidagi har bir so‘zning tezaurus ko‘rinishini ochib berish qiyin vazifa bo‘lganligi sababli o‘zbek tilshunosligida fikrning mohiyatini ifodalaydigan, gapning markazini tashkil etuvchi fe’l so‘z turkumi yuzasidan so‘zlar jamlanib tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida tezauruslarning yaratilishida o‘zbek tili xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi. Har bir til birligiga oid tushunchalar tezaurusini berishda ularning nutqdagi ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqib yondashiladi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida fe’llar fikr ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois o‘zbek tilidagi fe’llar tezaurusini boshqa tillarga qiyoslagan holda yaratish tilning ijtimoiy funksiyasini oshirishda, axborot uslubini shakllantirishda va takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.[2]

MUHOKAMA

Inson va mashina (kompyuter)ning o‘zaro aloqa munosabatga kirishuviga asos bo‘luvchi kompyuter lingvistikasida o‘zbek tilida ilovalar yaratish, matn tahririga oid kompyuter dasturlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. O‘zbek tili korpusini yaratishda ana shunday muammolarga yechim bo‘luvchi ilmiy tadqiqotlar olib borish allaqachon boshlab yuborilgan. Bunday ishlar zamirida elektron lug‘atlar

yaratish aktualligi bilan ahamiyatlidir. Elektron lug‘atlar nima va ularni yaratishning amaliy ahamiyati nimada?

Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi lug‘at tuzish ishlarini ancha yengillashtiradi. Axborot manbalarini yig‘ish bo‘yicha maxsus dasturlar (Database Software) lug‘at asosini tashkil etuvchi barcha ma’lumot va misollarni jamlash va sistematik tarzda ishlov berishga qulaylik tug‘diradi. Bundan tashqari, boshqa maxsus dasturlar lug‘atni tahrir qilish va chop etish borasidagi ancha mashaqqatli mehnatni bir qadar osonlashtiradi. Elektron lug‘atlar ham, o‘z navbatida, an’anaviy lug‘atlarga qaraganda birmuncha afzalliklarga ega. Bugungi kunda, masalan, ABBY LINGVO kompaniyasining lug‘at va tarjima dasturlari ulardan foydalanuvchi har bir xaridorga o‘z lug‘atini tuzish yoki mavjud lug‘at so‘z boyligini to‘ldirib borish imkonini beradi. Ochiq turdagи Internet lug‘atlari (online lug‘atlar) ham ko‘p hollarda barcha foydalanuvchilarga ushbu lug‘atlarni boyitish uchun imkon beradi. Shuningdek, quyida keltirilgan jihatlari elektron lug‘atlarning optimalligini ta’minlaydi:

- hajm jihatidan ixchamligi, kompaktligi, boshqa manbalarga (internet tarmog‘i orqali, giper-murojaatlar yordamida) ulanish imkoniyati,
- mavjud matnlar yordamida illyustrativ misollar tuza olish imkoniyati, multimedia tasvirlari bilan boyitilganligi.

Hozirgi davrda nafaqat kompyuter lingvistikasida, balki umuman tilshunoslikda ham elektron lug‘atlar bilan bir qatorda, tezaurus lug‘atlar va ularni takomillashtirish bo‘yicha ham qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.[4]

Tezaurus (thesauros) grek tilidan olingan bo‘lib, “xazina” ma’nosini anglatadi. Tezaurus termini ikki xil ma’noda ishlatiladi: 1) lingvistik tahlillarga asoslangan to‘liq ma’lumot yoritilgan lug‘atlarni; 2) inson yoki hisoblash mashinalarida bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmuyini ifoda etadi.

Tezaurus tarkibidagi so‘zlar alfavit bo‘yicha emas, balki mavzu va mavzular majmuyi sifatida shakllangan lingvistik lug‘at hisoblanadi. Tezaurus – so‘zlar va so‘z

birikmalari o‘rtasidagi turli bog‘lanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bazasidir. Tezaurus aslida nafaqat voqelik haqidagi axborotni, balki yangi ma’lumotlarni qabul qilib olish imkoniyatini yaratuvchi metainformatsiyani (axborot haqidagi ma’lumotlarni) ham qamrab oladi.

Izohli lug‘atdan farqli ravishda tezaurus tushunchani izohlabgina qolmay, uning sun’iy intellekt doirasida faol qo‘llanadigan boshqa tushunchalar va shu tushunchalar guruhiga munosabatini ham aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda tezaurus informatsiya (axborot) nazariyasida subyekt egallagan barcha ma’lumotlarning majmuasi sifatida ham qo‘llanadi. Tezaurus koorporativ kommunikatsiyaga ham yordam beradi. Koorporativ kommunikatsiya — kompyuter lingvistikasiga o‘xhash, soddarroq qilib aytganda bitta kasb yoki bir xil tartib-intizom bilan bog‘liq insonlar o‘rtasidagi muloqotlarning, munosabatlarning asosi sanaladi.[4]

NATIJALAR

Tezaurus lug‘atlar bir so‘z semantikasi bilan bog‘liq barcha belgilarni qamrab oladigan, matnda qo‘llanish xususiyatlarini to‘liq aks ettiradigan kompyuter lug‘atidir. Tezaurus giperhavola vositasida boyitilgan katta hajmdagi ma’lumotlar bazasidir.

Xususan, “qora” leksemasining barcha ma’noviy semalarini yig‘ib, quydagicha tezaurusni ishlab chiqdik: **QORA**

No	Tezaurus qolipi	So‘zning semantik pasporti
1.	So‘zning yoki til birligining morfologiya va sintaksisga aloqadorligi:	O‘zbek tilida rang ma’nosidagi qora so‘zi tezaurusini ko‘rib chiqamiz. Qora – rang-tus bildiruvchi sifat.
2.	Talaffuz qilinishi:	qora
3.	Semantik tarkibi:	A) <i>so‘zning asl ma’nosi</i> : Rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to‘q; qozonkuya, ko‘mir tusidagi; B) <i>ko‘chma ma’noda</i> : Umuman, salbiy belgini, salbiy belgiga egalikni bildiradi; yomon. Qora niyat. Qora kuchlar.

		<p><i>ko 'chma esk.</i> Ma'lum miqdordagi yaxlit summa. Bir qora cho'zsak, kifoya deb o'layman, ozmi, ming so'lkavoy.</p> <p><i>Oybek</i>, “Ulug‘ yo l”</p> <p>C) sinonimi: qoramtil D) omonimi: – E) antonimi: oq F) paronimi: – G) giperonimi: rang-tus</p>
4.	Yaqin ma'nodagi so'zlar:	qora dog‘, qora niyat, qora ro'yxat, qora xalq, qora ish, qora granit, qora dona (shaxmat), qoramol.
5.	Etimologiyasi:	turkiy “katta”
6.	Frazeologizmlarda qo'llanilishi:	<p>Akangizga qora yuqtirmaslik uchun O'ktamni ham oqlayapsizmi endi?</p> <p><i>S. Zunnunova</i>, “Ko'zlar”. Men sizni qora tortib keldim, O'rmonjon aka.</p> <p><i>A. Qahhor</i>, “Qo'shchinor chiroqlari”</p>
	Birimlalar tarkibida:	<p>Poyezdning qorasi o'chguncha mo'ltirab qarab turdim, keyin yig'lab-yig'lab, izimga qaytdim. S.Siyoyev, “Yorug'lik”.</p> <p>Demak, yuzimning bir tomoni kundek yorug'-u, bir tomoni tundek qora ekan.</p> <p><i>X. To'xtaboyev</i>, “Shirin qovunlar mamlakati” .</p>
7.		<p>turkcha: kara, siyah</p> <p>inglizcha: black</p> <p>ruscha: чёрный</p>

XULOSA

Yuqorida tezaurus yuzasidan keltirilgan nazariy ma'lumotlarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkin:

– tezaurus, ayniqsa, elektron formatdagi tezaurus har bir sohaga doir so'zlarni to'liq ochib beradigan lug'atlardan biri sanaladi. Bunday lug'atlarning o'zbek tilida elektron formatdagi ko'rinishi insonning vaqtini tejash, bir so'z haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi;

– tezaurus lug‘atda har bir so‘zning sinonimi, antonimi, etimologiyasi, omonimi va u bilan birika oladigan so‘zlar qatori ochib beriladi. Tezaurus, birinchi navbatda, so‘zlar va ularning matndagi qo‘llanishiga doir misollar izohlangan maksimal darajada to‘liq lug‘at hisoblanadi. O‘zbek tilida yaratilgan bunday lug‘atlar o‘zbek tilini o‘rganuvchi xorijliklar uchun qulay imkoniyat yaratadi;

– kompyuter lingvistikasi har bir tilning o‘ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatic sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo‘ygandagina lingvistik taraqqiyot omili bo‘la oladi. Shuningdek, turli xil lug‘atlar va tezauruslarga ham kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kundagi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa, nafaqat til ixlosmandlari, balki adabiyotshunos va dasturchilarni ham yangi ilmiy izlanishlar qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2007, 2008, 2009..
2. Qurbonova F. Kompyuter lug‘atlari: tezaurus. – T, 2014.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1-tom.
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent – 2020 . “Asian Book House” 81-bet.

**ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING INTERAKTIV METODLAR ORQALI LUG‘AT
BOYLIGINI OSHIRISH**

Madina Xurramova Abdunazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishni rivojlantirish jarayonida samarali interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini va dars samaradorligini oshirish usullari haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinf, aqliy rivojlanish, amaliy faoliyat, qobiliyat, rag‘bat, didaktik maqsad, ta’lim samaradorligi, interaktiv metod, interfaol dars, lug‘atni boyitish, nutq madaniyatini shakllantirish.*

KIRISH. Bugungi kunda Fransiya, Shvetsiya, Italiya va Finlandiya kabi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z ona tililarini mukammal bilishlari uchun kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy layoqatlarni erta aniqlash va maqsadli rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda ta’lim tizimidagi barcha islohotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, barchasi kelgusi avlod uchun berilayotgan e’tibor va kelajak uchun poydevordir. Shu Jumladan, Prezidentimiz ham bejiz quyidagi fikrlarni bildirmagan:

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko’tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyorolarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.” Bu fikrlardan shuni

bilishimiz kerakki, biz kelajak avlodni har tomonlama yuksak dunyoqarashga ega va o‘z fikrlarini erkin va ravon tarzda bayon qiloladigan va jamiyatda o‘z o‘rnini topib, jamiyat uchun ulkan hissa qo‘sadigan yangi O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan qilib tarbiyalashimiz kerak. Suning uchun prezidentimiz ta’lim sohasiga bejizga e’tabor qaratmayapti. Buning uchun biz ustozlar o‘quvchilarni dunyo yoshlari bilan bellasholadigan, raqobatbardosh qilib tarbiyalashimiz kerak. Bunda bizdan sifatli ta’lim berish kutiladi va darslarni samarali tarzda tashkil etish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bilamizki, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida asosiy e’tiborni o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omili deyishimiz mumkin. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida biz o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishimiz, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarishimiz, lug‘at boyligini boyitish orqali tevarak atrof borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy, kreativ fikrlesh ko‘nikmasini egallahda interaktiv metodlarni qo‘llab ularga bu bilimlarni egallahshlariga imkoniyat yaratishimiz lozim. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda eng asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslanishimiz, ya’ni tilning muloqot vazifasini birinchi o‘ringa qo‘yishimiz darkor. Shuningdek faoliyatga

yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e’tiborda bo‘lishi lozim.O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o‘sirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zaxirasini vujudga keltiradi. Lug‘at ishida so‘zning ma’nosи, talaffuzi va imlosiga e’tibor qaratiladi. Lug‘at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So‘z ma’nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko‘chma ma’noli so‘z va iboralar, paronim so‘zlar, shakldosh so‘zlar ma’nosи, imlosi va talaffuzini izohlashda qo‘llaniladi. Masalan, ziyrak va zirak so‘zлari. Bular yozilishi jihatdan bir biriga o‘xhash bo‘lishiga qaramasdan ikkisi ikki xil ma’noni anglatadi. Birinchisi insonning xususiyatini, ikkinchisi esa taqinchoq ma’nosini anglatadi.

2. So‘zlarni kuzatish orqali ularning imlosini, ma’nosini va talaffuzini o‘rgatish. Bu usul o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish jarayonida, ko‘m-ko‘k, oppoq kabi sifatlarning ma’no nozikliklari, imlosi va talaffuzini o‘rgatishda qo‘llaniladi.

3. So‘zni belgilariga ko‘ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhimdir. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi va so‘ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o‘xhash va farqli tomonlari ajratiladi. Masalan qavm-qarindoshlik bo‘lishi mumkin: ota yoki ona tarafdagilar. Ma’lum bir guruhdagilar ro‘yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkiun. Masalan, Bolalar o‘yinchoqlarini nomini tuzdiring yoki o‘zingiz bilgan ertak nomlari ro‘yxatini tuzing kabi. Bular o‘rganayotgan mavzulariga, mashq matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi. Demak, lug‘at boyligini oshirishda biz yuqorida interaktiv metodlardan foydalanish dars sifat samaradorligini oshirishi haqida aytgan edik. Bular quyidagilar: Mosini top, Bir daqiqa, Qaynoq kartoshka, Ortiqchasini top, Zanjir kabi metodlar. Shulardan Zanjir metodini o‘tilgan darsni mustahkamlash qismida foydalansak darsni yanada qiziqarli va jonli olib brogan bo‘lamiz. O‘yin tartibi shundayki: birinchi partadagi o‘quvchi

mavzudan bitta yangi o‘rgangan so‘zini aytadi, keyingi ishtirokchi esa o‘sha birinchi ishtirokchi aytgan so‘z bilan birgalikda o‘zi ham yangi bitta so‘zni aytadi. Shu tartibda o‘yinimiz davom etadi. O‘yin davomida so‘zlarini unutib qo‘yan o‘quvchilar o‘yindan chetlashtirilib boraveradi. O‘yin so‘ngida qolgan bitta ishtirokchi g‘olib bo‘ladi va o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. Bu metod o‘quvchilarni nafaqat yangi o‘rgangan so‘zi esida saqlashiga yordam beradi balki, uni xotirasi va diqqatini ham rivojlantiradi. Yana bir samarali interfaol metodlarimizdan biri bu - Bir daqiqa metodi hisoblanadi. Bu metodni biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan jamoa tartibida ham, yakka tartibda ham o‘tkazishimiz mumkin. Uning sharti shuki: o‘quvchi yangi o‘rgangan so‘zlarini faqat bir daqiqa davomida yozishi kerak. Bir daqiqa tugagandan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilardan kim qancha so‘z yozolganini aniqlaydi. Undan so‘ng esa ustoz eng ko‘p so‘z yozgan o‘quvchini doskaga taklif qiladi va bu so‘zlarini qayta o‘ib izohlab berishini aytadi. Bu bilan o‘qituvchi kam yozgan o‘quvchilar esidan chiqargan so‘zlarini esiga solishga va diqqatli bo‘lishga chaqiradi. Lug‘at ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqi yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Bu esa ularning o‘z fikrlarini ravon tilda tushunarli qilib aytishlariga yordam beradi. Zero, Til muncha sharaf birla nutqning olatidir va ham nutqdirki gar napisand zohir bo ‘lsa, tilning ofatidir - deganda Navoiy bobomiz insonlarning go ‘zal nutqi uni sharafli qilishini aytganlar. Maftuna Abduqayumovaning maqolasidagi ushbu satrlar orqali bilishimiz kerakki o‘quvchilar g‘ozal nutqga ega bo‘lishlari ularni yanada yuksaklikka ko‘taradi va sharafli qilar ekan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bunday tartibdagi metodlar dars samaradorligini nafaqat oshiradi balki, o‘quvchilarni harakatga undaydi va ularni o‘rganishga, izlanishga bo‘lgan ishtiyoyqini oshiradi. Shuning uchun har bir darslarda shu turdagи turli xil metodlardan foydalanib dars o‘tishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K, Matchonov S1. Ona tili o‘qitish metodikasi.Boshlang‘ich ta’lim fakultet talabalari uchun darslik: Toskent: Bayoz, 2022. 304bet.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi.2-qism.2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2021.
3. Maftuna Abduqayumova, O ‘qish darslarida lug‘at ustida ishlash , Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar: № 1 (2022): Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar
4. <https://xs.uz/uz Xalq so‘zi 3.07.2021 yil>
5. Zilola Baxtiyorovna Xamraeva "BOSHLANG‘ICH SINFLARNING ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI "CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH VOLUME 2 I ISSUE 5 I 2022 Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
www.openscience.uz / issn 2181-0842

ZAMONAVIY MAKtablarga Qo‘YILADIGAN AYRIM ME’MORIY FUNKSIONAL XUSUSIYATLAR

Abdillayev Boburjon Ikramjanovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 1-bosqich magistranti

abdillayevbobur@gmail.com

ANNOATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor va shu bilan birga o‘quvchilarining ta’lim maskani bo‘lgan zamonaviy maktablarga tug‘ilayotgan ehtiyoj, darslarning zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion ta’lim tizimlariga muvofiq ko‘p funksiyali maktablarni loyihalash. Chet el mamlakatlari tajribasini o‘rganish bilan bir qatorda zamonaviy maktablarda me’moriy funksional xususiyatlariga qo‘yiladigan ayrim talablar va ularning qanday loyihalanishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, O‘zbekistonda ta’limga e’tibor, zamonaviy maktab, zamonaviy maktablarning funksional xususiyatlari.

SOME ARCHITECTURAL FUNCTIONAL PROPERTIES FOR MODERN SCHOOLS

ABSTRACT

The article in the article is the need to be born to the education system of Uzbekistan, at the same time design to teach students to modern schools, modern information technologies, innovative education systems. In addition to the study of foreign countries, some requirements and how they design their design will be designed on the architectural functional characteristics in modern schools.

Keywords: Uzbekistan, the functional features of modern schools, modern schools in Uzbekistan.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda Yangi O‘zbekiston tamoyili asosida rivojlanishni davom etayotgan O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaga ham katta e’tibor qaratilmoqda. 2023-yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb nomlanishi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Xususan 2023-yilning 28-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab- quvvatlashga qaratilgan video selektiri bo‘lib o‘tdi.[1] “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi degan g‘oya asosida ushbu soxada katta ishlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Davlatimizda ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda zamonaviy maktablarga ham sezilarli darajada ehtiyoj tug‘ilmoqda. O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy mакtab binolarini loyihalash uchun arxitekturaviy funksional tamoyillarini takomillashtirishga talab ortadi. Xozirgi zamonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi ta’lim muhitini o‘ziga xos me’moriy makonda shakillanishini taqozo etadi[2], hamda zamonaviy tamoyillar asosida loyihalanishi talab etadi.

Zamonaviy maktablarning rivojlanishi: birinchidan, samarali ta’lim tizimi talablariga javob beradigan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishi: ikkinchidan, me’moriy makонни o‘zgaruvchan, funksional ta’lim sharoitiga moslashtirishni talab etishini inobatga olishi; uchinchidan, yosh avlodning mafkuraviy shakillanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan me’moriy ahamiyatini tushunishga bo‘lgan tub ma’nosini o‘rganishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Zamonaviy maktablarni loyihalashda chet el mamlakatlari Yaponiya, Finlandiya, Rossiya, Xitoy va boshqalardagi maktablarning me’moriy yechimlari hamda dizaynlari borasida innovatsion izlanishlari bilan ajralib turadi. Ular shartli ravishda ikkta yo‘nalish shaklida loyiha taqdim etishlari mumkin - universal hamda ijtimoiy.


Birinchi, universal yo‘nalish bo‘lib unda ta’lim usullari va tehnologiyalaridagi o‘zgarishlarini hisobga olish uchun moslashuvchan imkoniyatlarga ega bo‘lgan maktab makonining funksional va rejalashtirish xususiyatlarini tanlaydi. Qisqa qilib aytganda ushbu yo‘nalishda me’moriy makonning universalligi bilan ta’minlangan ta’lim tizimining samarali va barqaror rivojlanishiga nisbatan ijtimoiy e’tibor namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi, ijtimoiy yo‘nalish bo‘lib mактабning hajmli dizaynida zamonaviy ta’limning g‘oyaviy mazmunini me’moriy tasvirda aks ettiruvchi mактабning ijtimoiy ahamiyatini yoritadi. [3-4] Qisqa qilib aytganda ochiq va moslashuvchan tabiat, ta’limdagi ehtiyojlarini qondirish, ta’lim jarayonida talab etiladigan xizmatlarindan teng foydalanish, o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonch, qatiyatni shakillantirshdan iborat bo‘ladi.

Keltirilgan ushbu yo‘nalishlar mutlaqo bir-biriga zid bo‘lmagan holda mактаблар ta’lim tizimining insonparvarlik asoslarining semmetrik va ramziy mamuning turli jihatlari aks ettirilgan. Yangi va zamonaviy mактаб me’moriy, dizayn tamoyillari yuqorida ikkala mактабning dizayn hamda me’moriy tendensiyalarining kompazitsion va funksional tahlillaridan kelib chiqgan holda amalaga oshiriladi.


NATIJALAR

Zamonaviy mактаб me’moriy funksional xususiyatlari quyidagilardan tashkil topishi lozim.

1. Funksional muslashuvchanlik – bunda mактабning aloida tarkibiy xonlari (dam olish zonalari, sinf xonalari) funksional maqsadini o‘zgarishi hamda o‘quv o‘quv xonalarining ko‘p funksiyali foydalanishini ham o‘z ichiga oladi. Bunday funksional o‘zgaruvchan xonalar o‘qitish usullari va metodlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday xonalarni asosan boshlang‘ich sinf xonalarda loyihalash samarali hisoblanadi.(1,2-rasm)



1-rasm. Sinf xonasining universal geometrik xususiyatlari




2-rasm. Sinf xonalarinig ko‘p funksiyali moduli

2. Funksional sig‘im –bunda umumiy makondan unumli foydalanish hisoblanib asosiy ko‘rsatgichlardan biridir. Minimal makondan foydlangan holda maksimal funksionallikni ta’minlash. Funksional sig‘imda, matab binosining universal, dam olish zonalari, ko‘p funksiyali zallar, o‘qituchi va o‘quvchilar birgalikda foydalanadigan xonalarni loyihalashdan iborat.

3. Ijtimoiy funksiyalarining fazoviy tarkibda ustnligi - bunda gorizontal zonalashtirish va shunga o‘xshash funksialarga ega bo‘lgan xonlarni guruhlash orqali makonni vertikal birlashtirishni nazarda tutadi

4. Loyihalash tuzilmasining moslashuvchanligi – bunda ob’yekt mavjud bo‘lgan butun davr mobaynida o‘z dolzarbligini saqlab qolishi uchun fazoviy rejlashtirish tuzulmasi bo‘lib, zonalar ichida maydonlarning qayta taqsimlanishi tufayli makonning geometric xuxusiyatlarini hamda funksional zonalashni o‘z ichiga

oladi. (3-rasm). Moslashuvchan loyihalashning ikki jihatni mavjud. Birinchisi, o‘quv mashg‘uloti davomida jihoz va mebeldan foydalanish tartibini o‘zgartirish, ikkinchisi, fazoning geometric shaklini o‘zgartirish orqali funksional tarkibni o‘zgartirish.



3-rasm. Sinf xonasi modulining ta’lim maydonida qayta taqsimlanishi

5. Transformatsiya va harakatchanlik - bunda muhitni turli il o‘zgaruvchan jihozlar, mebellar orqali ta’lim faoliyatini yashilash, va uning dinamikasini oshirishiga izmat qiladi. Sinf xonalaridagi mobil qurilmalar va ekranlarga mos ravishda mebellarni joylashtirish.

6. Ekologik muhit – bunda maktab binosining fazofiy-funksional, tashqi va ichki makoni orasidagi bog‘liqlikda tabiiy muhitdan foydalanish, qayta tiklanadigan manbaalardan foydalanish nazarda tutiladi. [5] Ekologik muhitni asrash va tabiatga bo‘lgan munosabatni yaxshilash, ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Biz yashab turgan davrda butun dunyoda ta’limning ahamiyati mamlakatning madaniy va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish imkonini berada oladigan bilimlarga asoslangan jamiyat yo‘lida rivojlanishi uchun shart-sharoilart yaratishni eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Ta’limning asosiy bo‘g‘ini - bu umumiy o‘rta ta’lim maktabi hisoblanib, uning yaratilishi nafaqat bolalarning bilim olishiga, balki

shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ham olib keladi. Shunday ekan ta'limni rivojlantirish birgina o'qituvchilar, ta'limning me'todiga bog'liq bo'libgina qolmasdan ta'lim maskanlari hisoblangan maktablarning me'moriy loyihaviy-funksional xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Ma'lumki so'nggi yillarda ta'limning barcha sohasida elektron qurulmalar kompyuterlar, monitorlardan keng foydalanilmoqda, ta'lim berishda chet el mamlakatlari me'todlaridan keng foydalanilmoqda. Bunday qurilmalardan foydalanish va ta'limda qo'llanilayotgan me'todlardan kelib chiqgan holda ko'p funksiali sinf xonalari, ochiq yoki yopiq bo'lgan transformer xonalari mavjud, o'quvchilarni tabiat bilan uyg'un hamda bilim olishlari uchun keng fazoviy makonlardan iborat bo'lgan zamonaviy maktablarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bunday maktablarga erishish uchun eski maktablarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yoki yangi binolar qurish bilan erishish biroz qiyinchilik tug'diradi. Maqolada ta'kidlab o'tilgan zamonaviy, funksional xususiyatlariga ega maktablarni loyihalshni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6622>
2. «BUILD SCHOOL» ko'rgazmasi materiallari. – URL: <http://www.buildschool.ru/>
3. Anisimov V.Yu. “Системный подход к проектированию школьных зданий” // Архитектон: известия вузов. – 2012. – № 38. – URL: http://archvuz.ru/2012_2/7
4. Barabash M.V. “Системный подход к процессу формирования архитектурной среды школьных зданий” // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistemnyy-podhod-k-protsessu-formirovaniya-arhitekturnoy-sredy-shkolnyh-zdaniy>
5. Goloverov V.T., Blinder Yu. V., “Принципы проектирования пространственной структуры школьных зданий” // URL: <https://nsktvs.ru/node/168>

PSIXIK JARAYONLARNING ZAMONAVIY EKSPERIMENTAL TADQIQOTLARI

Zuxurova Shoxida Barotovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti.

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak psixologlar mustaqil ishlash jarayoniga tayyorlashda ularning intellektual qobiliyatlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlarning zamонавиy eksperimental metodlari ba'zi jihatlari mazmun mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: eksperiment, globallashuv, innovatsion, metod, oreintatsiya, endogen, model, motiv, kognitiv, intellekt, korrelyatsiya, qobiliyat, neyropsixologiya, patologiya senso-motor analiz, sintez, korteks, dinamika, anomaliya.

Hozirgi globallashuv davrida fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu o'z navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. "Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga o'zini jamiyatga daxldor".

Zamonaviy ekperemental tadqiqotlar fazoviy orientatsiya vazifasini bajarishda ongli va ongsiz endogen jarayonlarning rolini o'rganishga qaratilgan. Zamонавиy eksperimental tadqiqotning maqsadi endogen omillarning ta'sirini o'rganishdir-ehtimollik taxminlari va xabardorlik darajasi topshiriq shartlari haqida- fazoviy yo'nalish bo'yicha vizual muammolarni hal qilish yo'naltirilgan. Eksperimental psixologiyaning vazifalari:

1. Psixologiya fanida eksperiment o'tkazishning qonunlari, tartibi va tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat.
2. Turli metodikalar yordamida shaxsning psixik jarayonlari, holatlari va psixomotor rivojlanishini o'rganishdir¹⁴.

¹⁴ Z.Nishonova, D. Qarshiyeva. Eksperimental psixologiya. T., «Fan va texnologiya», 2007, 92 bet.

Zamonaviy kognitiv psixologiyada bunday vazifalar idrok etish, hushyorlik va qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganish uchun qulay modeldir. Bunday muammolarni hal qilish samaradorligi ikkala obyekt omillari bilan belgilanadi, rag‘batlantirish xususiyatlari va subyektiv omillar bilan bog‘liq, masalan kuzatuvchining individual psixologik xususiyatlari, motivlari, munosabatlari, strategiyalari va uslublari sifatida qaraladi.

Tadqiqot atrof-muhitni, voqelikni bilishning stixiyali shakllaridan farqli ilmiy metodga tayanadi. Uning amalga oshirilishi tadqiqot maqsadi va vositalari (metodologiyasi, nuqtayi nazar, metod va metodikalar)ni anglash va qayd etishni ko‘zda tutadi. Shartli tarzda tadqiqotni empirik va nazariy turlarga ajratish mumkin, odatda, ko‘pchilik tadqiqotlar nazariy-empirik xarakterda bo‘ladi. Har qanday tadqiqot alohida emas, yaxlit, bir butun ilmiy dastur chegaralarida yoki ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish maqsadlarida amalga oshiriladi. Shaxsning miyaning morfo-funktional holati aniqlashda, buzilishlar malakali va yuqori aqliy funksiyalar markaziy nerv sistemasining holatining miqdoriy xarakteristikalari aniqlaniqlashda va ular miyaning ma’lum sohalari bilan lokal ravishda korrelyatsiya qilishda neyropsixologik diagnostikaning (neyropsixologik tekshiruv)maxsus texnika va testlar yordamida psixik jarayonlarni o‘rganish mumkin. Bundan tashqari, bir yoki bir nechta omillarning bir yoki boshqa buzilishi, aqliy jarayonlarni amalga oshirish darajasi va patologik jarayonning lateralizatsiyasi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan markaziy nerv sistemasining buzilishining yaxlit sindromini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, neyropsixologik diagnostika vaqtida psixik funksiyaning shikastlangan va buzilmagan qismlari aniqlanadi. Tashxisdan so‘ng, patologiya yoki nuqsonlar aniqlanganda, neyropsikologik tuzatish amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik rus neyropsixologlari insonning yuqori aqliy funksiyalarining holatini tashxislash uchun A. R Luriyaning neyropsikologik testlar va stimulyatorlar bazasidan foydalanadilar. A. R. Luriya o‘zining "Yuqori kortikal funksiyalar va ularning mahalliy lezyonlarida buzilishlari" asarida miyaning mahalliy lezyonlarida tadqiqot vazifalarini ta’kidladi. Asosiy vazifa - muayyan funksiyalardagi

o‘zgarishlarning umumiyligi rasmini tavsiflash natijasida asosiy nuqsonni aniqlash, shuningdek, asosiy nuqsondan ikkilamchi tizimli kasalliklarni chiqarish. Tekshiruv davomida simptomning tuzilishi va asosini aniqlab olish kerak, bu faqat bemorni o‘rganishning eksperimental psixologik usullari bilan bo‘lishi mumkin. Psixolog boshqa barcha jarayonlardan aqliy jihatdan mavhumlanib, uni qiziqtiradigan faqat muhim jarayonni ajratib ko‘rsatadi va uni o‘rganish maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Sindromni aniq aniqlash uchun eshitish, vizual, sensomotor analiz va sintez, fikrlash, nutq, xotira va boshqa aqliy funktsiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli testlar seriyasiga ega bo‘lish kerak¹⁵.

Neyropsixologik diagnostika turlari

Topikal diagnostika - neyropsixologiyada keng qo‘llaniladi. Mahalliy diagnostika vaqtida ma’lum bir lokalizatsiyani aniqlash mumkin, ya’ni lezyonning joylashishini va markaziy asab tizimining zararlanish darajasini (miyaning korteks yoki subkortikal tuzilmalari darajasida) aniqlash mumkin. A. R. Luriya topikal diagnostikaga katta hissa qo‘sidi. U deyarli 96% hollarda lezyonning to‘g‘ri joylashishini aniqlay oldi. Hozirgi vaqtida bemorni tekshirishda kasallik tarixida neyroimaging ma’lumatlarini va neyropsixologning xulosasini ko‘rsatish odatiy holdir.

Funktsional diagnostika -neyropsixologik reabilitatsiya yoki farmakologik davolash dinamikasida psixik funktsiyalardagi o‘zgarishlarni kuzatadi. Funktsional diagnostika uchun turli xil ogohlantiruvchi materiallar talab qilinadi, chunki diagnostika jarayonida o‘rganish istisno qilinmaydi.

Individual tipologik diagnostika - ushbu diagnostika jarayonida normal sharoitlarda aqliy funktsiyalarni miya tashkil etishdagi individual farqlarga e’tibor beriladi. Ayniqsa, xavf guruhlari (masalan, mактабда o‘qishning dastlabki bosqichlarida yozish, o‘qish va hisoblashni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladigan chap qo‘l bolalar) alohida qiziqish uyg‘otadi.

¹⁵ СОВРЕМЕННАЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ Том 2. В. А. Барабанщикова

Rivojlanish anomaliyalarining diagnostikasi - bu rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarda aqliy funktsiyalarning xususiyatlarini neyropsikologik diagnostika qilishdir. Bunday tashxisni amalga oshirish uchun neyropsixologga bolalarda rivojlanish psixologiyasi, fiziologiyasi va markaziy asab tizimining anatomiyasi bo‘yicha maxsus bilim kerak. Maxsus moslashish va diagnostika usullarini tanlash talab etiladi. Ushbu diagnostika protsedurasi ko‘pincha o‘quv eksperimentini o‘z ichiga oladi¹⁶.

Neyropsixologik tekshirish usullari.

Diagnostika paytida (neyropsixologik testlarni o‘tkazish, diagnostika monitoringi) buzilishlarning turli belgilari aniqlanishi mumkin. Ular birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali deb tasniflanadi. Birlamchi alomatlar psixik funktsiyaning aloqasi yo‘qolganda paydo bo‘ladi, ikkilamchi alomatlar esa bu nuqsonning bir yoki bir nechta aqliy funktsiyalarga ta’sirini aks ettiradi. Uchinchi darajali alomatlar kompensatsiya jarayonlari natijasida miyaning qayta tuzilishida ifodalanadi.

T.V Axutinaning “Bolalarning nutq buzishlarini neyropsixologik diagnostikasi”.

Monreal Kognitiv Baholash (MoCA) kognitiv buzilishlar uchun keng qo‘llaniladigan skrining baholash metodikasıdir, 1996 yilda Kvebekning Montreal shahrida Ziad Nasreddin tomonidan yaratilgan. O‘lchov yengil kognitiv buzilish sharoitida tasdiqlangan va keyinchalik shkala boshqa klinik maqsadlarda ishlatilgan. Qisqa-ruhiy holatni aniqlash testi - bu mumkin bo‘lgan kognitiv buzilishlarni, xususan, demansni tekshirish uchun ishlatiladigan 30 ta elementdan iborat qisqa so‘rovnama. Kasallikning rivojlanishi paytida yoki terapiya natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni baholash uchun ham qo‘llaniladi.

Shkala 1975-yilda ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda unga o‘zgartirishlar kiritildi. Test odatda taxminan 10 daqiqa davom etadi va qisqacha insonning arifmetik qobiliyati, xotirasi va makon va vaqttagi orientatsiyasini baholaydi. Baholash natijalari individual kasalliklarga xos emas.

¹⁶ Методы нейропсихологического обследования детей/ Под общей редакцией Т. В. Ахутиной — 2016

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Z.Nishonova, D. Qarshiyeva. Eksperimental psixologiya. T., «Fan va texnologiya», 2007, 92 bet.
2. СОВРЕМЕННАЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ Том 2. В. А. Барабанщикова
3. Балашова Е. Ю., Ковязина М. С. Нейропсихологическая диагностика в вопросах и ответах. — 2012.
4. Методы нейропсихологического обследования детей/ Под общей редакцией Т. В. Ахутиной — 2016.
5. Ахутина Т. В., Пылаева Н. М. Преодоление трудностей учения: нейропсихологический подход //СПб.: Питер. — 2008
6. Folstein M. F., Folstein S. E., McHugh P. R. "Mini-mental state". A practical method for grading the cognitive state of patients for the clinician (англ.) // Journal of psychiatric research : journal. — 1975. — Vol. 12, no. 3. — P. 189—198.

MUSIQA TA'LIMINING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI. (XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA)

Yuldasheva Xurshida Shuxrat qizi

O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi “Musiqa pedagogikasi” kafedrasi magistratura
bo‘limining 1-kurs talabasi

Kalit so‘zlar: Zamonaviy tizim, ezoterik, stereotip, estetik, modernizatsiya,
semantik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta’limi dasturlarida belgilangan
faoliyat turlarini qo‘llashda ilg‘or musiqiy xorijiy tajribalaridan foydalanish
masalalari ko‘rib chiqildi.

Abstract: In this article, the issues of using advanced musical foreign
experiences in applying the types of activities specified in music education programs
were considered.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы использования
передового музыкального зарубежного опыта при применении видов
деятельности, указанных в программах музыкального образования.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni barcha fanlar
qatori musiqiy fanlar o‘qitilishiga ham davlat ta’lim standarti talablarini qo‘ydi, shu
asosda o‘quv rejalar ishlab chiqish va o‘quv ishlarini tashkil etishni taqazo etadi.
Hozirgi davrda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, yani maktabgacha ta’lim
tashkilotlaridan to‘oliy o‘quv dargohlarida o‘qitiladigan musiqiy fanlargacha ushbu
talab asosida o‘qitilmoqda.

Ta’lim tizimining kontseptual asoslarini yangilash jarayoni jamiyat taraqqiyoti
tendentsiyalari bilan belgilanadi. Bugungi kunda tarixiy shakllangan ana shunday

qonuniyat natijasida ham umumiy, ham tarmoq pedagogikasining fundamental yo‘nalishlari faol ravishda o‘zgartirib borilmoqda.

Musiqiy estetik fanlarni o‘qitish metodikasida eng muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Umumta’lim maktablarida musiqa fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammosi nihoyatda dolzarbligicha qolmoqda.

Musiqa ta’limining zamonaviy tizimi o‘z tarixining murakkab va mashaqqatli jarayonlardan birini boshidan kechirib, o‘z taraqqiyotida burilish pallasida turibdi. Bu davr musiqa ta’lim sohasida islohotlar, nazariyalar, qarashlarning qarama-qarshiligi, yangi texnologiyalar, shakllar, o‘qitish usullarini izlash bilan xarakterlanadi.

Asosiy qism.

O‘zbekiston musiqa ta’limida xorijiy davlatlar ijobjiy tajriba va tendensiyalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunda dolzarb masalalar qatorida turibdi.

Jumladan qo‘shiqlar mamlakati bo‘lgan Italiyada “yaxshi ovoz tinglash umringizni 10 yilga uzaytiradi” deyishadi. Nafaqat Italiyada, balki Yaponiyada ham opera tomosha qilgan odamlarni quvnoq, jonli ekaniga guvoh bo‘lish mumkin. Oxirgi paytlarda “Musiqa – ruh uchun vitamin” degan iborani tez-tez uchratish mumkin. Shu tariqa musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir ko‘rsatish qudratiga ega. Bugungi kunda musiqani davolashda musiqa kuchidan foydalanish (musiqiy terapiya) bo‘yicha tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqlishi ularga taqdim etilgan musiqa orqali rivojlanadi, ularning oiladagi muhiti esa shaxsiy iste’dodini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan kuyni tinglash va uni tahlil qilish cholg‘ularda jo‘r bo‘lish orqali dastlabgi psixologik reaksiyalar paydo bo‘ladi. Musiqiy ta’limida tashkil etiladigan faoliyat turlari sifatida quidagilarni ta’kidlash mumkin: musiqa tinglash, qo‘sinq kuylash, musiqa savodi, musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg‘u asboblarida ijrochilik imitatsiyasini.

Musiqada aks etgan fikr, rang-barang g‘oya va obrazlar orqali o‘quvchi ma’naviyatini rivojlantirish mumkin. Haqiqiy musiqiy idrok hissiy va mazmunli harakat, voqelikni aks ettirishning maxsus shakli, estetik badiiy hodisa sifatida tavsiflanadi. Musiqiy idrokning ezoterik¹⁷ hususiyatiga egaligiga qaramay, badiiy asarni tinglash jarayonida inson tabiiy ravishda fikrlashning stereotiplardan¹⁸ va ko‘plab sub’ektiv omillarning ta’siridan mustaqil hulosalar chiqara boshlaydi. Umumta’lim maktablarda musiqa darsi shuunchaki yuzaki olib borilmasdan o‘quvchining musiqa madaniyatiga qiziqishini uyg‘otish kerak deb hisoblayman. Musiqa bilan shug‘ullangan musiqa cholg‘usida asar ijro eta olgan bolalarda ikki tomon yarim miyya sharlari ham yaxshi ishlashi isbotlangan. Bu o‘z o‘rnida bolalar mustaqil qaror qabul qila olishida va albatta musiqa madaniyati bilan tanishgan bolalarning estetik tarbiyasi rivojlanishida o‘z samarasini ko‘rsatadi. Buning natijasida bir tomondan, bolalar va o‘sirinlarning musiqiy shou-dasturlari va tadbirlarida ishtirok etishga bo‘lgan ommaviy istagi hosil bo‘ladi. Boshqa tomondan, ularning yuksak badiiy asarga nisbatan insonning ma’naviy dunyo qarashini, hayotiy tajribasini rivojlanishiga, ijtimoiy ong shakli sifatida aks ettiradigan san’at turiga ijobiy munosabati shakllanadi. Bundan tashqari, halqaro tajribalarni o‘rganish musiqani o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari va yoshlar musiqiy submadaniyatining estetik g‘oyalariga ta’sirini kuchaytirish kabi o‘quv jarayonining millarini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

“Musiqa madaniyati” fanning o‘quv dasturda milliy musiqa folklorining xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, xalqning an’anaviy musiqa madaniyatiga intonatsion jihatdan yaqin bo‘lgan badiiy repertuardan foydalanish kabi talablar belgilangan. Shu bilan birga, jahon badiiy merosi namunalari bilan milliy halq va mumtoz musiqa durdonalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash zarur. Musiqa madaniyatida qo‘llaniladigan faoliyat turlarida ta’lim mazmuni bo‘lgan repertuar tanlash jarayonlari ham qayta ko‘rib chiqilishi va soddalashtirilishi maqsadga muofiq. Chunki, ta’lim mazmuni bolalar va o‘smirlarning musiqa ta’limini

¹⁷ Ezoterizm bu bilimlar yig‘indisi.

¹⁸ Stereotip- ma’lum bir toifadagi odamlarga nisbatan haddan tashqari umumlashtirilgan e’tiqod.

insonparvarlashtirish g‘oyasini hayotga tatbiq etish, zamonaviy umumta’lim mакtabida musiqa darslarining nufuzi va muammosini hal etishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu g‘oyani quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin:

- mакtab o‘quvchilarini musiqa san’atini o‘rganishga undash (elektron darsliklardan foydalanish, mustaqil ishlash, muommoli ta’lim loyiha faoliyati usuli);
- bolalarning estetik ehtiyojlari va musiqiy hohishlarini amalga oshirish;
- musiqa asarga nisbatan obrazli tasavvurni shakllantirish o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarining pedagogik hamkorlikdagi musiqning ifoda vositalarini yaratilishining natijaviy mazmunini aks ettiradi;
- o‘quv jarayoniga o‘qitishning innovatsion usullari va eng yangi texnik o‘quv vositalarini joriy etish (kompyuter texnologiyalari asosida darslarni o‘tkazish ularning o‘quvchilar uchun jozibadorligini ta’minalash katta zaxirasi bo‘lib ko‘rinadi, bolaning musiqaning badiiy mazmunini shaxsiy tushunishi uchun qulay pedagogik shartsharoit yaratish (o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ijodiy faoliyatining, muhim sharti avtoritar va sub’yektivizm omillar ta’sirini bartaraf etishdir);
- interfaol metodlardan foydalanish.

Rossiyada musiqa ta’limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi ilgari surilgan. Ta’lim sifatining yangi mezonlari mavjud bo‘lib, mакtab bitiruvchisi mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradigan universal bilimlar tizimini yaratish konsepsiyasini ilgari suradi.

Shuningdek, ta’lim oluvchining muammolarni mustaqil hal qilishga ijodiy yondashish imkonini beruvchi yuksak ijodiy fikrlashga ega bo‘lishi, atrofdagi voqelikni va axborotni tanqidiy baholay oladigan yetuk shaxs sifatida shakllanishi ko‘zda tutilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda badiiy-estetik sikl fanlari, xususan musiqa darslari katta rol o‘ynaydi, chunki o‘quvchilarining ijodiy rivojlanishi fanning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. “Musiqa pedagogikasi” muhim sohalaridan biridir va uchta o‘zaro bog‘liq komponentdan tashkil topadi: motivatsion, faoliyatli va mazmunni aks ettiruvchi komponentlar. Musiqa pedagogikasida ijodkorlik bolaning musiqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi va bolaning

musiqani takrorlash, sharplash va his qilishi esa qobiliyat sifatida belgilanadi. Shuning uchun musiqa darslarida ijodkorlikni rivojlantirish, birinchi navbatda, bolaning musiqiy va ijodiy faoliyatini mativatsion faollashtirish bilan bog‘liq. Ma’lumki, musiqiy faoliyatning barcha turlari ijodkorligini shakllantirishga qaratiladi chunki ularning har biri bolaga ijodiy ta’sir ko‘rsatadi: “tinglovchi” (musiqani ijodiy idrok etadi, talqin qiladi), “ijrochi” (Musiqa ijsro etadi), “bastakor” (haqiqatga munosabatini bildiradigan badiiy tasvirni yaratadi). Shu sababli, musiqa san’ati bola qibiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarining mazmunli to‘plami nafaqat bolaning hissiy sohasiga, balki uning intellektual, kognitiv va fiziologik rivojlanishiga ham ta’sir qiladi.

Bularning barchasi boshlang‘ich maktab o‘quvtuchilari tomonidan, musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarini qo‘llash mehanizmlarini ishlab chiqish, bolalar ijodiyotini rivojlantirish va ularning musiqiy ta’lim sifatini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Bolalarni ijodiy musiqiy faoliyatga jalb qilishni tashkil etish, o‘qituvchi bilan pedagogik jarayonning an’anaviy va innovatsion shakllari, usullari va vositalaridan foydalangan holda o‘yin va muammoli ta’lim strategiyalarini o‘z ichiga olishi zarur. Pedagogik jarayonni loyihalashga bunday yondashuv bilan ijodiy faoliyatning o‘ziga xos usullari shakllantiriladi, o‘quvchilarning san’atda amaliy tajribasi tufayli muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratiladi. O‘quvchini san’atning emotsional-semantik makoniga singdirish usullaridan biri bilimlarni muammoli taqdim qilishdir. Bolani musiqa bilan tanishtirish vositasi sifatida muammoning paydo bo‘lishi, bir tomonidan, musiqaning intonatsion tabiatini, insonga ta’sirining o‘ziga xos mazmunini tushunishga imkon beradi. Boshqa tomonidan, muammoli ta’lim musiqa darslariga mazmunan badiiy va shakl jihatdan tarbiyaviy faoliyatga asoslangan yondashuvni ta’minlash shartidir.

Musiqa darslarida muammolilik mohiyati bolalar ijodiyotini rivojlantirishni vositasi musiqa tabiatiga kirib borishi, musiqa nima uchun aynan shu shaklda rivojlanganligini tushunishi imkonini yuzaga keltiradi. Bastakor musiqa yaratar ekan,

hayotni tinglaydi, uni badiiy obrazlarda gavdalantiradi. Ijrochi kompozitor bastalagan asarda hayotni eshitishga, tinglovchi esa kompozitor va bastakor yaratgan asar orqali hayotni o'rganishga harakat qiladi. Bunda kompozitor hayotni musiqada aks ettirar ekan, tasvirlangan hodisaga hamisha hissiy baho berishi bolalarning diqqatini tortadi. Muammoni kiritish zaruratining muhim jihatni bu ta'lim oluvchi san'atning paydo bo'lishi sababi va insonga ta'sirini anglashga yo'nalganligidadir. San'at insonga o'ziga xos poetik ong, go'zallikni anglash, qadrlash va uni maxsus "Musiqa madaniyati" darslarida hayotiy hodisalarni badiiy obraz orqali umumlashgan shaklda aks ettirishiga e'tibor berish bilan birga, bu hodisalarga odob-axloq, go'zallik nuqtai-nazaridan baho berish ham muhim ahamiyatga ega. Musiqa atrofimizdagi hayotni faqat falsafiy darajada aks ettiradi va shu orqali his-tuyg'ularimiz va fikrlarimizni yuksaltiradi.

Xulosa.

Shunday qilib, musiqani rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar mifik o'quvchilari uchun badiiy ta'limni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rivojlanishning san'atga yo'naltirilgan pedagogikasini yaratish;
- rivojlanishda san'atning rag'batlantiruvchi funktsiyasini yaratish;
- pedagogik faoliyatni takomillashtirish;
- texnologiyalar musiqiy kichik mifik o'quvchilariga badiiy ta'lim berish;
- ijodkorlikni rivojlantirish va musiqa ta'limi sifatini ta'minlash;
- murojaat orqali badiiylik mexanizmini chuqurlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoyev "Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiysi" Toshkent sh. 2018-yil 28-noyabr PQ-4038-son
2. N. Leontieva / L. S. Vygotskiy "Искусство" 1986. - 573 b.
3. A.Melik-Pashaev "Педагогика искусства и творческие способности" 1981. - 96b.

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI YER VA QUYOSH
PLANETALARI HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH
USULLARI**

Shanasirova Zaxro Yuldashovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti dotsenti

Mutalova Feruza Baxt qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyanuvchilari borliq va unga tutash hodisalar va tabiatni sevishga qaratilgan holatlarni ko'rish mumkin. Bola tarbiyasida tabiatning o'z o'rni borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tabiat, inson, rol, Markaziy Osiyo, mutafakkir, muhofaza, fikr, tarix, tanishtirish, metod, fan.

INTRODUCING NATURE TO PRESCHOOL CHILDREN

ABSTRACT

Preschoolers can see the events that take place and the events that take place in it, and the love of nature. Special emphasis was placed on the role of nature in the upbringing of children and the need to explain its rational use.

Keywords: *nature, man, role, Central Asia, thinker, conservation, thought, history, introduction, method, science.*

Mustaqillik shrofati bilan yurtimizda ma’nan barkamol jismonan sog’lom intelektual yetuk avlodni tarbiyalashga kata e’tibor berilmoqda. Bunday sharoitda oilada farzand tarbiyalash borasidagi an’analarimiz davr ruxi va extiyojlari bilan chambarchas bog’lanib yanada o‘z axamiyatini namoyon etmoqda. Shu sababli oilani mustaxkamlash uning ma’naviy axloqiy tarbiya borasida o‘rnini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatininng asosiy bo‘g‘inini tashkil etmoqda.

KIRISH

Tabiat - bu organik (tirik) va noorganik (notirik) dunyoni o‘zida qamrab olgan bir butun olam tabiat – g‘oyat xilma-xil shakllari, tarkibiy kismlari bilan insoniyatni kurshab turgan organik va anorganik olamlar, o‘simplik va hayvonot dunyosi. Insoniyat esa undan paydo bo‘lib, ajralib chiqqan mavjudotdir. Shu bois uning bir mohiyati tabiiy (biologik), ikkinchi mohiyati ijtimoiydir. Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlari fuqarolik jamiyatining muhum instetuti bo‘lgan oilaning yaxlit tizimi bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, mafkuraviy asoslariga xam ta’sir qiladi.

MUHOKAMA

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati. Tabiatga muhabbat - juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg‘udir. U yuksak ruhiy va akdiy qatlamlarni o‘z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda atrof-muxitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M. Umarovaning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o‘zi yashab turgan mahalliy o‘lka va O‘zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko‘ngil qo‘yish ishtiyoqi o‘sib boradi. Bolalikda tug‘ilgan bu tuyg‘u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi.

Ana shuning uchun ham P.Yusupova o‘zining «Formirovaniye nachal materialisticheskogo miroponimaniya u starshix doshkolnikov v protsesse oznameniya ix s rasteniyami v usloviyakh Uzbekistana» deb nomlangan tadqiqot ishida metodist olim A.V.Zaporojetsning kuyidagi fikrini o‘rinli keltiradi: “...

maktabgacha yosh didaktikasini shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, bolalar tevarak-atrofdagi buyumlarning tashqi jihatlari bilangina emas, balki ular orasidagi eng oddiy boglanishlar, kuzatilayotgan hodisalarning eng yaqin sabablari, o‘zgarish va rivojlanishlaridagi ayrim xususiyatlar bilan ham tanishsinlar, bunday material saviyaga mos bo_libgina qolmay, maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli hamdir". Bola ana shu bog_lanishlarni anglash orqali tabiat qonunlarini bilib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - bu ularda tabiatga to‘gri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta’limiy vositasi.

Kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o‘z-o‘zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo‘lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to‘gri bo‘ladi Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta’siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma’lumotlarni egallashlari juda muhim.

Bolalar tabiat hodisalarini to‘gri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo‘naltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatli hal etib bo_lmaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ta’limiy-tarbiyaviy vazifalari.

O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim konsepsiyasiga ko_ra bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o‘zaro bir-biriga bog‘liq ta’limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi - bolalarda notirik tabiat, o‘simgiliklar, hayvonlar haqida ma’lumot berish, ularning tabiat vokeahodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berish.

Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi - sensor madaniyatdir. U analizatorlarni takomillashtirish, bolalarda keyingi umumlashmalar uchun asos bo‘ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid. dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatları - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat narsa-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o‘rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.

Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarni: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta’mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko‘zi bilan, tovushlarni qulog‘i bilan sezib, ya’ni mazkur xossalarni bolaning besh turli sezgisiga ta’sir etib, shu a’zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalarni to‘g‘risida bilim paydo bo‘ladi, ularning ko‘rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o‘simliklarni qanday kuzatishni ko‘rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko‘rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur.

Bolaning axloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish asosiy o‘rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo‘l ular o‘sib o‘lg‘ayotgan joydir. Maktabgacha ta’lim muassasasida hayvonlar va

o'simliklarning mavjud bo'lsa, bolalar ularni kuzatadi va bokadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyojkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyojkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'simliklarni sugarish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o'rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o'zlarini bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo'lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihatni bola kelajakda o'z hayotida dunyoning barcha va xilmaxil go'zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachiga qo'yiladigan talablar.

Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zahiralariga ega bo'lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izoxlay olishlari talab etiladi. Ayniqsa, o'zi yashab turgan joy tabiatini: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, tabiat kalendarini tuza olishi, o'simlik va gullarni ko'paytirish ko_nikmasiga o'rganishi muhim.

Bolalarda tabiatga faol va ehtiyojkorona munosabatni tarbiyalash maktabgacha ta'lif muassasasida mavjud bo'lgan hayvon va o'simliklarni oziklantirishga yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil eta olish, o'simlik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Bundan tashqari u maktabgacha ta’lim muassasasi maydonchasi va tabiat burchagida o’simliklarni sugarish va hayvonlarni boqishning agrotexnik usullarini egallay olishi lozim.

Tarbiyachining namunasi bolalarda mehnat ko‘nikmalarini tarbiyalashda hal etuvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida tarbiyachining o‘zi tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olishi va tabiatda go‘zallik yaratish ishtiyoqiga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Zarur bilim va ko‘nikmalarni egallab qolmasdan, tabiat bilan tanishtirish shakl, metod va vositalaridan foydalana olishni ham o‘zlashtirishi talab etiladi.

REFERENCES

1. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов (2020). ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, (4), 412-417.
2. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.
3. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, & Гулчехра Курдашевна Юсупова (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ (ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 370-378.
4. Oybek Uralovich Abdumurotov (2021). —YEVROSIYO MATERIGIINI O‘QITISHDA —KEYS STADI METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048

5. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, & Актути Араповна Туйчибекова (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИ ФАОЛИЯТИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ВА ПСИХОЛОГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ (ТАБИЙ ФАНЛАР МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 456-471.

6. Sherzod Ibroim Oglu Ibroimov, & Xaytgul Omonboevna Begalieva (2021). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА —ТАБИАТШУНОСЛИК|| ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 438-445.

7. Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЁТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671

ABDULLA QAHHOR “DAHSHAT” HIKOYASINING PRESUPPOZITIV TAHLILI

Zaylobiddinova Mohtoba Sherzod qizi

O‘zMU O‘zbek filologiyasi, I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda pragmalingvistika sohasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan presuppozitsiya hodisasi haqida so‘z yuritildi. Presuppozitsiya hodisasi haqida nazariy ma’lumotlar keltirildi hamda Abdulla Qahhor hikoyalarida presuppozitsiya hodisasining qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, faktiv presuppozitsiya, kontrfaktiv presuppozitsiya, mantiqiy presuppozitsiya, strukturaviy presuppozitsiya, semantik prezumpsiya, pragmatik prezumpsiya.

Pragmalingvistik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiyadir. Tilshunoslikka kirib kelgan presuppozitsiya termini presuppozitsiya termini ham pragmalingvistikaning tahlil tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Presuppozitsiya tushunchasi, dastlab, falsafada yuzaga kelgan bo‘lib, G. Frege uni olmiy amaliyotga kiritgan, keyinchalik presuppozitsiya lingvistikaga kirib keldi va Ch. F. Fillmor, A. Svika, G. Gabriel, J. Lakoff, N. Xomskiy va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganildi va o‘rganilmoqda¹.

Presuppozitsiya hodisasini tadqiq etishdan oldin, presuppozitsiya atamasining lug‘aviy ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Presuppozitsiya termini lotincha sub – osti, tagi va ponere – joylashtirmoq, joylashmoq kabi ma’nolarni bildiradi². Presuppozitsiya atamasiga juda ko‘p olimlar tomonidan turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, bu atama G. Frege tarifida “gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi” deya ifodalansa,

¹ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘TA.1986.N:6. – B.28.

² Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi.nomzodlik diss. – Samarqand, 1994, - B.2.

I.D.Arutyunova uni “bilishning umumiy xazinasi” deb izohlaydi, G.V. Naducheva esa “oldindan bilishning jami” kabi ta’riflar bilan keltiradi.

O’zbek tilshunosligida A. Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, Z.Burhonov, U.Rahimov kabi olimlar presuppozitsiya bo‘yicha bir qancha ishlar qilishgan. Presuppozitsiyada barcha uchun tushunarli bo‘lgan propozitsiya haqida gap ketadi. Ya’ni propozitsiya jumlalarning ma’nosi barchaga tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo, presuppozitsiya hammaga aniq bo‘lavermaydi. Jumladan, “....nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lishi, umumiy vaziyat bilan bog‘liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi¹.

Tilshunos olim A. Nurmonov ushbu pragmatik terminni “...presuppozitsiya logik va semantik tushunchalar bo‘lib, logika va sintaktikaning o‘rganish obyekti”dir, ...sintaktik konstruksiyalarda propozitsiyalarning biri shu suppozitsiya orqali anglashiladi² deya ta’riflaydi. Shuningdek, tilshunosning fikricha, “...sodda gap tarkibidagi ayrim so‘zlar va grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, shu sodda gapni semantik murakkablashtirilishi mumkin³.

Olimlar tomonidan presuppozitsiya turlicha tasniflanadi. Jumladan, E.V.Paduchevaning tadqiqotlarida ikkiga bo‘lingan: 1) semantik prezumpsiya; 2) pragmatik prezumpsiya.

V.G.Gak tasniflarida presuppozitsiyaning uch turini ko‘rishimiz mumkin: 1) keng presuppozitsiya; 2) tor presuppozitsiya; 3) lingvistik presuppozitsiya. Keng presuppozitsiya – borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi umumiy bilim bo‘lsa, tor presuppozitsiyada ma’lum bir vaziyatda sodir bo‘layotgan nutqiy hodisa mavzusi nazarda tutiladi. Keng presuppozitsiyada nutq vaziyati umumiy bilim asosida olinadi,

¹ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O’TA. – T, 1986. N:6 - B. 28.

² Nurmonov A.Ko‘makchili konstruksiylar presuppozitsiyasi.// O’zbektili va adabiyoti. – T.,1986. N:6. B.42.

³ Ernazarova M.S. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filol.fanlari dokt.(DsC) dissertatsiyasi avtoref. – Samarqand, 2018.

tor presuppozitsiyada esa nutq mavzusi torayadi. Lingvistik presuppozitsiya esa kognitiv bilimni ma'lum til qoidalari asosida ifodalanishi, til haqidagi bilimidir.

N.A.Toropova tasnifida presuppozitsiya zidlanuvchi a'zolar presuppozitsiyasi va kuzatilgan presuppozitsiya kabi ikki guruhga ajratilgan. Presuppozitsiyaning bir qancha tasnifini G.Yul ishlarida ham ko'rishimiz mumkin: 1)ekzistensial presuppozitsiya; 2) faktiv presuppozitsiya; 3)nofaktiv presuppozitsiya; 4) leksik presuppozitsiya; 5)strukturaviy presuppozitsiya; 6) kontrfaktiv presuppozitsiya¹. E.Kinen presuppozitsiyani ikki turga: amaliy presuppozitsiya va mantiqiy presuppozitsiyaga ajratadi². Unga ko'ra, amaliy presuppozitsiyada so'zlovchining egallagan bilimi nazarda tutilsa, mantiqiy presuppozitsiyada propozitsiyalar o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik nazarda tutiladi.

O'zbek tilida presuppozitsiyani ifodalovchi grammatik vositalarni M. Xujamqulova quyidagicha ifodalagan:

- a) Leksik vositalarning fakultativ ma'no komponentlari;
- b) *Hatto, faqat, yolg'iz, -gina, ham, tag'in, yana* yuklamalari;
- c) *Bo 'lsa, esa* bog'lovchi vositalari;
- d) *Tashqari, boshqa, o 'zga, bilan birga, o 'rniga* ko'makchilar

Pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri, tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutq subyektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashirin propozitsiyalar va ulardagi presuppozitsiyalar (voqelikning bayon qilinishi va uning yashirin, ichki imkoniyatlarini) tadqiq etadi. Masalan, *Unsin yana o 'tin qidirdi, lekin har safar o 'tin qalaganida alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvochlarni uyg'otib yuborishidan qo 'rqqandek, uning ustiga o 'zini tashlaguday bo 'lar edi.* (A. Qahhor "Dahshat") Bunda yashirin presuppozitsiya mavjud (*Unsin oldinroq ham o 'tin qidirayotgan edi*). Propozitsion nutqda yashirin, ichki maqsadni ochib berishga yordam beradi. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyat bo'lib,

¹ Yule U.pragmatics. – Oxford: OxfordUniv. Press, 1996. P.30.

² Keenan E. Two kinds of presupposition in natural language. – In: Studies in linguistic semantics,ed. By Ch. Fillmore and D.Langendoen. N.Y, 1971. – P. 45-52.

mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslangan ko‘rishi hisoblanadi. Demak, lingvistik presuppozitsiyani gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli¹.

Gaplarni pragmatik tahlil qilishda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari ham muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, darak gaplarni pragmatik tahlil qilishda presuppozitsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xabar mazmunidagi birgina propozitsiyadan iborat bo‘lgan sintaktik qolip nutqda jonlanganda adresat va adresantga ma’lum bo‘lgan bir nechta informatsiyani anglatishi mumkin.

Presuppozitsiyalar vositasidagina ayni gap tiplarining semantikasi va kommunikativ qimmatini konkret va haqqoniy baholash mumkin². Presuppozitiv jihatdan, ayniqsa, darak gaplar va ritorik so‘roq gaplarning presuppozitsiyasi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘ladi.

Har bir propozitsiyada birdan ortiq prezuppozitsiya mavjud bo‘ladi va bu presuppozitsiyani yuzaga chiqarishda grammatik vositalar yordam beradi. Masalan, *Endi Unsinni tilab olish uchun biron so‘z aytishga hech kim, hatto go‘ristondan uning o‘ligi kelishiga ko‘zi yetib, ichida faryod chekayotgan Nodirmohbegim ham jur’at qilolmay qoldi.* (A.Qahhor “Dahshat”). Uning propozitsiyasi: Nodirmohbegimdan boshqalar ham bor, ular ham faryod chekayotgan edi. Ham yuklamasi orqali qo‘sishimcha mazmun anglashilmoqda.

Presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko‘rinishni to‘liq namoyon qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari – ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o‘rin oladi³. Matndagi propozitsiyani mantiqiy tahlil qilish asosida presuppozitsiyani aniqlab olish mumkin bo‘ladi.

Darak mazmunini ifodalayotgan soda gap Grammatik jihatdan tahlil qilinganda, bitta xabar, ma’lumot beradi (har bir sodda gapda bitta ma’lumot anglashiladi.) Masalan, *Nihoyat qumg‘on qaynadi.* (A.Qahhor “Dahshat”) Ushbu

¹ Burxonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filologiya fanlari nomzodlik dissertasiyasiga avtoreferati. – Toshkent, 2008.

² Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘zbek tili va adabiyoti. – T, 1986. N:6. – B. 28-42.

³ Burxonov Z. B. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filol.fanlari d-ri. Avtoref. – T, 2008.

misolni presuppozitiv tahlil qilaylik. Presuppozitiv tahlilida ushbu darak gap zamirida bir qancha botiniy ma’no ifodalanadi: 1. Qumg‘onni qaynashi ancha qiyin bo‘ldi. 2. Qumg‘on qaynashi uchun ancha vaqt ketdi.

Presuppozitsiyani aniqlashda, shuningdek, uning strukturasi ham muhimdir. Kommunikativ birliklarning bu jihatlarini aniqlashda lingvistik vositalarning bir qancha turlari, jumladan, lingvistik vositalar va sintaktik vositalar doirasida amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiyaning tasnifi va u haqidagi nazariy qarashlar turli olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, deyarli barchasi presuppozitsiyada lisoniy birliklarning ahamiyatini alohida qayd etib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xujamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022
2. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘TA.1986.N:6. – B.28.
3. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi.nomzodlik diss. – Samarqand, 1994, - B.2.
4. Nurmonov A.Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi// O‘zbektili va adabiyoti. – T.,1986. N:6. B.42.
5. Ernazarova M.S. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filol.fanlari dokt.(DsC) dissertatsiyasi avtoref. – Samarqand, 2018.
6. Burxanov Z. B. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filol.fanlari d-ri. Avtoref. – T, 2008.
7. Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi. Internet tarmog‘idan www.ziyouz.com

BUDJET MA'LUMOTLARINING OCHIQLIGI VA DAVLAT SEKTORIDA BUDJET IJROSIGA OID HISOBBDORLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Abdurayimov Vohidjon Qahramon o'g'li

Toshkent moliya instituti magistranti

vohidjon_tfi@mail.ru

Phd. Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich

Toshkent moliya instituti

uygunachilov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet mablag'lari ijrosi yuzasidan ma'lumotlarning ochiqligi, davlat sektorida budjet ijrosiga oid hisobbdorlikni takomillashtirish, budjet mablag'laridan oqilona foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Mamlakatimizda davlat moliya tizimini boshqarishni takomillashtirish, tahlil va monitoring qilish istiqbollari va samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, budjet ijrosi, budjet tizimi, nazorat va monitoring, davlat moliysi.

ISSUES OF TRANSPARENCY OF BUDGET INFORMATION AND ACCOUNTABILITY OF BUDGET EXECUTION IN THE PUBLIC SECTOR

Abstract. This article describes the research conducted on the transparency of information on the execution of budget funds, the improvement of accountability for the execution of the budget in the public sector, and the rational use of budget funds. Scientific and practical proposals and recommendations are made on the issues of improving the management of the state financial system, the prospects and efficiency of analysis and monitoring in our country.

Key words: State budget, budget execution, budget system, control and monitoring, state finance.

KIRISH

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi budget mablag‘laridan samarali foydalanish, budget ma’lumotlarining jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida budget ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash hamda davlat sektorida budget ijrosiga oid hisobdorlikni ta’minlash maqsadida me’yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagи “Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-son qaroriga muvofiq quyidagilar amaliyatga joriy etildi:

Budget mablag‘larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishni nazarda tutadigan “Tashabbusli budgetlashtirish” tizimi amaliyatga tatbiq etildi;

2020 yildan boshlab Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari axborotlari batafsil bayon etilgan, qonun bilan tasdiqlash amaliyoti joriy etildi;

Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari, soliq va budget siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari, shuningdek, Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish amaliyoti tatbiq etildi;

Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari loyihalari hamda ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan «Fuqarolar uchun budget» axborot nashri jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilish joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonga muvofiq

barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari tomonidan ochiq ma’lumotlarni ommaga chop etish belgilangan.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Davlat budjetidan sarflanayotgan budget mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlar jumladan, daromad va xarajatlarning tarkibiy qisimlarini ochiqlangan holda (choraklik va yillik) www.imv.uz, ochiq ma’lumotlar portalı (opendata.gov.uz) va ochiq budget portalı (openbudget.uz) hamda rasmiy ijtimoiy sahifalarida joylashtirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-son farmoni qabul qilingan.

Mazkur farmonga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda Davlat budgeti mablag‘larini kassa ijrosini amalga oshirish, budget tashkiloti shartnomalari va naqd pullarni boshqarish kabi faoliyat turlari aynan g‘aznachilik tomonidan bajarilib kelinayotganini inobatga olsak, O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonida nazoratning ustunliklari va xalqaro tajribalarining ijobiy jihatlaridan samarali foydalanishga e’tibor qaratish, g‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilishni takomillashtirish, tahlil va monitoring qilish tartibini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini izlab topish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar ijtimoiy yo‘nalish bilan bir qatorda, kelajak iqtisodiyoti uchun moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib, iqtisodiyotning

uni yangi bosqichga qayta qurishda istiqbolli sohalarni rivojlantirishni moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Moliya tizimi budjetlarining daromadlarini to‘liq shakllanish darajasi mamlakatning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, bunda fuqarolarning farovonligi, inflyatsiya darajasini ijobiy pasayish tendensiyalari bilan iqtisodiy o‘sish, valyuta kursi va foiz stavkasining pasayishi nazarda tutiladi.

Bu esa o‘z navbatida, rivojlangan mamlakatatlarning budjet tizimida davlat budjetni shakllantirish, budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonlarini o‘rganish va respublikada ilg‘or xorij tajribasi qo‘llash masalalarini ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlar o‘z navbatida, mazkur maqola mavzusining dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga doir adabiyotlarni tahlil qilish mabaynida bir nechta yetakchi iqtisodchi olimlar va mutuxassislar izlanishlar olib borganligiga guvoh bo‘lamiz. Budjet mablag‘lari samaradorlikka va natijaga yo‘naltirilganligini oshirishda o‘rta muddatli budjetni rejalashtirish doimiy takomillashtirib borilishi natijasida o‘rta muddatda mavjud bo‘lgan bo‘sh moliyaviy resurslarni aniqlash imkoniyatlari kengayib boradi.

Budgetdan mablag‘ oluvchilar kesimida budjetni taqsimlash va ularning budjet vakolatlarini kengaytirish mexanizmining joriy etilishi bilan budjet tashkilotlari va budgetdan mablag‘ oluvchilarning o‘z maqsadlarini belgilash va muvofiq ravishda aniq tadbirlarini rejalashtirish imkoniyatlari ham kengayib boradi.

Asosiy e’tibor budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ajratilgan budjet mablag‘laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini baholash ko‘rsatkichlarini kengaytirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish zarur.

Ayni paytda “Dasturiy budjetlashtirish”ni joriy etish uchun zarur bo‘lgan mexanizmlar aniqlashtiriladi, mazkur tizimning afzallik va kamchiliklari o‘rganilib, joriy va yangi tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlarini aniqlash uslublari ishlab

chiqiladi. Jumladan, amaldagi budget tasnifiga o‘zgartirish kiritilib, davlat xarajatlarini dasturlar bo‘yicha tasniflash joriy etish ko‘zda tutilmoxda.

Strauch R.Xallenberg M.J.Fon Xagenlar Yevropa mamlakatlarida budget prognozini shakllantirish qabul qilingan dasturlarni barqaror realizatsiyasi va dasturlar o‘rtasidagi konvergentlik, ya’ni o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashning omili ekanligini tadqiq qilishgan.¹

Iqtisodchilar J.Blondal, D.Bergall, I.Xavkesvord va R.Dayton-Smitlar Avstraliyada iqtisodiyotdagi barqaror makromoliyaviy ko‘rsatkichlar ta’milanishi sharoitida o‘rta muddatli budgetlashtirish imkoniyatlari va uni pozitiv jihatlarini tadqiq qilishgan.²

Iqtisodchi olim J.Lyuingman yuqoridan quyiga qarab yo‘naltirilgan budgetlashtirish prizmasi sharoitida budget menejmentining samaradorligini ortish imkoniyatlarini tadqiq qilgan.³

Iqtisodchi K.Rogof siyosiy biznes sikllarining turli fazalari kesimida o‘rta muddatli budgetlashtirishnining samaradorlik mezonlarini taklif qilgan.⁴

Mamlakatimizda budget mablag‘lari ijrosi samaradorligini oshirish boshqarishni nazorat qilishning mamlakatimizdagi amaliyotini va huquqiy asoslarini hamda xorij tajribalarini o‘rganish asosida budget mablag‘larining o‘zboshimchalik bilan sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik, mayjud shartnomaviy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish yo‘llarini izlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni samaradorligini takomillashtirishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Davlat budgeti mablag‘lari ijrosi samaradorligi uning moddiy negizini milliy iqtisodiyot va jamiyatnining sotsial platformasidagi davlatning pozitsiyasi tashkil qiladi.

¹ Strauch R., Xallenberg M., J.Fon Xagenlar Yevropa mamlakatlarida budget prognozini shakllantirish yuzasidan monografiyasi

² J.Blondal, D.Bergall, I.Xavkesvord va R.Dayton-Smitlar Avstraliyada iqtisodiyotdagi barqaror makromoliyaviy ko‘rsatkichlar ta’milanishi maqolasida

³ J. Lyuingman yuqoridan quyiga qarab yo‘naltirilgan budgetlashtirish prizmasi sharoitida budget menejmentining samaradorligini ortish imkoniyatlari

⁴ K.Rogov siyosiy biznes sikllarining turli fazalari kesimida o‘rta muddatli budgetlashtirishnining samaradorlik mezonlari maqolasida

Budget mablag‘lari ijrosi muhim jihatlardan biri siyosiy qarorlar qabul qilishning bosh omilidir, chunki u risklarni kamaytirishni ta’minlaydi va oldini olish choralarini ko‘rish imkoniyatini berishi hisoblanadi. Budget mablag‘lari ijrosi o‘rta muddatli rejalashtirishda davlatnining moliyaviy resurslarini shakllantirish va sarflanishi uchun siyosiy jihatdan hisobdorlikni ta’milanishi nazarda tutiladi. Buning sababi milliy daromadning taqsimlanishida davlat budgetida to‘lanadigan moliyaviy resurslar davlatnining ixtiyoridagi moliyaviy resurslar hisoblanib, ularni shakllantirish va foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilish Parlamentning vakolatiga kiradi. Har qanday rejalashtirish kabi davlat budgeti mablag‘lari ijrosi o‘rta muddatli rejalashtirish ham davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishda maksimal samaradorlikni ta’minlashi zarurligini nazarda tutadi. Zero, rejalashtirish boshqaruvning muhim funksional elementi sifatida uning samaradorligini fundamental asosini tashkil qiladi. Zero, iqtisodichilar ta’kidlaganlaridek, “Reja hech narcha emas, rejalashtirish hamma narsani tashkil qiladi” – deb aytilgan tom ma’nodagi qoidaga asoslangan holda, budgetni o‘rta muddatli rejalashtirish o‘zining maksimal samaradorlikka erishish imkoniyatlari orqali xususiy jozibadorligini namoyon qiladi.

Ma’lumki, davlat budgeti daromadlarining yetarli darajada bo‘lishi mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarni belgilangan miqdorda va muddatlarda moliyaviy taminlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun bugungi kunda budget daromadlarini samarali shakllantirish va ularning hajmini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero bu boradagi ishlarni amalga oshirish natijasida jamiyatning barcha qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun imkon bermoqda.

